

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISTLIK-QURILISH INSTITUTI

“QURILISH” *fakulteti*

“BINOLAR VA INSHOOTLAR QURILISHI” *kafedra*

МИРЗАКОМОЛОВА ДУРДОНА РУСТАМЖОН ҚИЗИ

**"NORIN TUMANI HOKKULOBO SHAHAR HUDUDIDA ZAMONAVIY
MAHALLA MARKAZINI REJALASHTIRISHNING ME'MORIY
REJALASHTIRISH"**

5341000 «Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish»

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri: dots.S.Abduraxmonov_____

Ilmiy rahbar: arxitektor N.Gofurov _____

“_____” _____2018 y

Namangan 2018

**Namangan viloyati Norin tumani
Xaqqulobod shahar hududida zamonaviy
mahalla markazini me`moriy
rejalashtirish**

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab hukumatimiz tomonidan arhitektura va shaharsozlik sohasiga katta e'tibor berilib, shaharsozlik sohasi faoliyatida bir qator O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Maxkamasining ushbu soha yuzasidan qarorlari qabul qilindi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar berayotgan yuksak samaralar ifodasini Namangan viloyati misolida ham ko'rish mumkin. Namangan ahli yurtimizda ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar va yangilanishlarda faol ishtirok etib, mustaqilligimizni mustahkamlash, Vatanimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, ma'naviy-madaniy hayotimizni yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Qayd etib o'tilsinki, mustaqillik yillarida shahar va qishloqlar aholi punktlarining zamonaviy arxitektura qiyofasini shakllantirish, uy-joy va ijtimoiy-maishiy qurilishni jadal rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rekonstruksiya qilish hamda yangilash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbarining 2009 yil 3 avgustda qabul qilingan "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2010 yil 8 sentabrda imzolangan "Qishloq joylarda uy-joylarni loyihalashtirishni takomillashtirish va qurilishni yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari asosida Namangan viloyatida 2010 yilda namunaviy loyihalar asosida 500 zamonaviy turar-joy barpo etildi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturini amalga oshirish natijasida qishloq aholi punktlarining qiyofasi tubdan yaxshilanib bormoqda, ijtimoiy-bozor infratuzilmasining rivojlangan tarmog'i yaratildi.

Arxitektura va shaharsozlik sohasini yanada rivojlantirish, shaharlar va aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish holatini yaxshilash, aholi punktlarini kompleks qurish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mas'uliyatini oshirildi.

Shu bilan birga shaharsozlik sohasi ushbu zamonaviy bosqichda hududiy tizimlarning yangi masshtablari, rejalashtirish va kelajak istiqbollarining yangi loyihaviy muddatlari, shaharlarni loyihalash va qurishning yangi muammolari bilan yuzma-yuz keldi.

Bu esa yosh mutaxassislar-shaharsozlarni tayyorlashga yangicha yondashuvni talab etadi. Ular shaharsozlik sohasida barcha yutuq va kamchiliklarni o'rganib chiqib, oldingi tajribalar asosida malakaviy ko'nikma va mahoratga ega bo'lishlari lozim. Bu o'z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib borayotgan O'zbekistonning yangi shaharsozlik strategiyasini hayotga tadbiq etish mezonidir.

O'zbekiston shaharlarining zamonaviy rivojlanishi to'xtovsiz urbanizatsiya jarayonida amalga oshadi. Bu o'z navbatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida ko'zga tashlanadi va shaharlar ahamiyatining o'sib borayotganidan dalolat beradi. Urbanizatsiyaning o'ziga xos tomoni bu, shahar aholisining katta va yirik shaharlarda to'planishidir. Va bu jarayonning natijasi – yashash muhitining yangisini shakllantirish va eskisini rekonstruktsiya qilish talabining oshishidir. Hududlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish masalasi, ulardagi tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda shaharsozlik uslublarini qo'llash zamonamizning dolzarb vazifasiga aylandi.

Yashash muhitini shakllantirish butun shaharsozlik muammolari majmuasini hal etishga bog'liq. Bu muammolar o'zida shahar va uning yashash hududi (turar-joy tumanlari va kichik tumanlar) rejaviy strukturasini mukammallashtirish, turar-joy va jamoat binolari, savdo va xizmat ko'rsatuvchi markazlar loyihalarini zamonaviy va kelajak talablariga moslashtirgan holda loyihalashni aks ettiradi.

Shahar muhitiga rivojlanishning obyektiv qonunlariga bo'ysunadigan yangicha nigoh va munosabat talab etila boshlandi. Natijada bir qator hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari ishlab chiqilgan va qabul qilingan, hamda u davlat shaharsozlik siyosatini mukammallashtirishga qaratilgan va unda faoliyatini davlat ta'minlab beruvchi ijtimoiy-ta'minlangan bloklari – bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari aniq ajratib ko'rsatilgan.

Shaharni rejalashtirish loyihasini tuzish, qurilish uchun hudud tanlashdan boshlanadi. Obodonlashtirilgan shahar muhitini yaratish, avvalambor, qurilayotgan shahar yoki uning bir qismi hududini to'g'ri tanlashga bog'liq. Tanlangan hududning tabiiy shart-sharoitlari: relyefi, tuprog'i, gidrogeologik, iqlimiy, landshaft va boshqalar shaharsozlik uchun qulay bo'lishi kerak, hudud kerakli o'lchamda va konfiguratsiyada, kelajakda makoniy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Qulay tabiiy sharoitlar quyidagi omillarni ko'zda tutadi: unchalik baland-past bo'lmagan relief, yetarli zichlikdagi tuproqlar, chuqur joylashgan yer osti suvlari, suv bosish va yer osti suvlarining ko'tarilishi havfi yo'qligi, qulay mikroiklim, shamollarda yetarli darajada himoyalanganlik, quyuq ko'kalamzorlar yoki juda bo'lmaganda o'simliklar ekish uchun yaraydigan tuproq.

Hudud yetarli kommunikatsion sharoitlarga ega bo'lishi, unda suv ta'minoti, kanalizatsiya, energetika muammolarini tejamli yechish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Tabiiyki, tanlangan hudud har doim bu talablarga javob beravermaydi, yuqorida keltirilgan omillarning bir qismi unda bo'lmasligi mumkin. Bu holda uni kam harajat ketkazib, qurilish uchun yaroqli holga keltirish kerak. Bunda relyefni rejalashtirish, daryo qirg'oqlarini tartibga solish, melioratsiya suv toshqinidan himoya qilish, suv ta'minoti, oqava suvlarni tozalash va boshqalar oqilona chegaralar doirasida bo'lishi lozim.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan, shaharsozlik faoliyatida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar ijrosini respublikamizning barcha hududlarida qad ko'targan go'zal binolarda, sanoat korxonalarida, ta'lim muassasalarida, sport inshootlarida, yangi qurilgan, qayta rekonstruksiya qilingan keng va ravon avtomobil yo'llarida, ko'priklarda, temir yo'llarida va boshqa ko'plab inshootlarda ko'rishimiz mumkin. Bular shahar va qishloqlar husniga-husn qo'shib xalq farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda. 2017-2021 yillarda Uzbekiston Rempublikasini rivojlantirishning 5 ta ustivor yunalishi buyicha xarakatlar strategiyasi ishlab chikilgan bulib uning 4 bulimida ijtimoiy soxani rivojlantirish, 4.3 boblarida arzon uy joylar barpo etish buyicha maksadli dasturlarni amalga oshirish, axolining turmumsh darajasini

yaxshilanishini tax'minlovchi yul transporti, muxandislik kommunikatsiya tarmoklarining va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish xamda moderinizatsiya qilish:

Axolining eng avvalo yosh oilalar eskirgan uylarda yashab kelayotgan fukarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muxtoj boshka fukarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish xamda shahar qishloq joylarida arzon uylar qurish orkali yanada yaxshilash:

Axolining kommunal maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish eng avvalo yangi ichimlik suvi tarmoklarini kurish tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni boskichma-boskich joriy etish orkali qishloq joylarida aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash:

Keyingi yillarda shahar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy me'moriy qiyofasini shakllantirish, uy-joy va ijtimoiy-maishiy qurilishni jadal rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini yangilash hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Urganch, Qarshi, Shahrisabz shaharlarining arxitektura-loyihalashtirish tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

ME'MORIY - REJALASHTIRISH
BO'LIMI

Konsultant: O.Sottiboev

Rahbar: N.G'ofurov

Diplomant: D.Mirzakamalova

**Namangan viloyati Norin tumani
Xaqqulobod shahar hududida zamonaviy
mahalla markazini me'moriy
rejalashtirish**

REJA:

- 1. O'zbekiston Respublikasi hududining umumiy ma'lumotlari.**
- 2. Namangan viloyati tarixi , iqlimi haqida ma'lumot.**
- 3. Хаккулобод шахри haqida umumiy ma'lumot.**
- 4. Me'moriy rejaviy yechim.**

O'zbekiston Respublikasining umumiy ma'lumotlari.

Mamlakat	O'zbekiston
Status	Namangan viloyati
Koordinatlar	Koordinatlar 41°00'04" sh. k. 71 40 06
Ichki bo'linishlar	11 tuman
Namangan haqida ilk manba	1941 yil 6 mart

Oldingi nomlari	Namakkon
Maydoni	7.44 ming kv <u>km</u>
Markaz balandligi	350-880 <u>m</u>
Iqlimi	Quruq subtropik
Davlat tili	O'zbek
Aholi	▲ 2 652 400 kishi (<u>2017</u>)
Zichligi	292,8 kishi./km ²
Aglomeratsiya	6.5 mln atrofida
Millatlat tarkibi	O'zbeklar 88,4% foiz, Ruslar 0,7% foiz, Tojiklar 8,9 foiz , Qirg'izlar 1,0 foiz qolgan 1,0 foizini boshqa millatlar tashkil etadi.
Dini	Islom, Xristian, Ateist va h.k lar
Etnoxronim	
Soat belbog'i(Poyas)	<u>UTC+5</u>
Telefon kodi	+998 69
Pochta indeksi	100000
Avtomobil kodi	50 (16 - eski)
Rasmiy sayt	<u>http://namangan.uz/ru</u>

NAMANGAN VILOYATI TARIXI.

Namangan viloyati – O`zR tarkibidagi viloyat. 1941 yil 6 martda tashkil etilgan (1960 yil 25 yanvarda Andijon va Farg`ona viloyatlari tarkibiga qo`shib yuborilgan. 1967 yil 18 dekabrda kayta tashkil etildi). Namangan (viloyat) respublikaning sharqida, Farg`ona vodiysining shim.-g`arbiy qismida, Tyanshan tog` tizmasi tarmoklari — Qurama va Chatqol tog`larining yon bag`rida joylashgan. Shimoliy va shimoliy-

sharkdan Qirg`iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubiy-sharqdan Andijon, janubdan Farg`ona, shimol va shimoliy-g`arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug`d viloyati bilan chegaradosh.

Maydoni 7,44 ming km². Aholisi 2 652 400 kishi (2017). Namangan (viloyat)da 11 qishloq tumani (Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To`raqo`rg`on, Uychi, Uchqo`rg`on, Chortoq, Chust, Yangiqo`rg`on), 8 shahar (Namangan, Kosonsoy, Pop, To`raqo`rg`on, Uchqo`rg`on, Chortoq, Chust, Haqqulobod), 11 shaharcha (Jomasho`y, Toshbuloq, Navbahor, Oltinkon, Uyg`ursoy, Chorkesar, Xalqobod, Uychi, O`nhayat, Yangiqo`rg`on, Oqtosh), 741 mahalla fuqarolari yig`ini va 11 ta shaharcha fuqarolari yig`ini bor. Markazi — Namangan shahri

Tabiati. Viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning o`ng sohilida, keng Farg`ona vodiysida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik bo`lib, shimoldan qator tepaliklar va Chatqol hamda Qurama tog`lari bilan o`ralgan. Balandligi 350–800 m. Tog` va adirlar, tor vodiylar, vohalar to`rtlamchi geologik davrning katta-kichik daryolari va irmoqlarning faoliyatidan hosil bo`lgan. Viloyat hududi geologik faol zonada joylashgan va 8 ballgacha-zilzilalar bo`lib turadi. Keng maydonni egallab yotgan va dehqonchilik ob`yekti bo`lgan Qoraqalpoq cho`li neogen davrida paydo bo`lgan. Foydali qazilmalardan Chodak oltin koni, tog` kvarsi, surma, mis, neft, gips, ohaktosh va boshqa qurilish materiallari, shifobaxsh mineral suvlar (Chortoqda) topilgan. Chust-Pop yer osti suvining issiqligi 50° (1300 m dan chiqadi). Suv tarkibida yod va brom bor. Chodaksoydan (450 m chuqurlikdan) 23° issiklikdagi vodorod-sulfidli suv chiqadi. Chortoq, Shahand, Kosonsoy, Uchqo`rg`on suvlari o`zining minerallanish darajasi va harakteri bo`yicha mashhur Matsesta, Chakrak, Tal suvlaridan qolishmaydi. Yer osti suvlari tog`, adir, tog` oldi botiqlarida va yoyilmalarda yirik toshli, shag`alli va qumli qatlamlarda joylashgan. Sirdaryoga yaqin zonalarda yer osti (sizot) suvlari mavjud. Iqlimimi keskin kontinental. Yozi uzok, issiq, qishi qisqa, nisbatan sovuq. Yillik o`rtacha temperatura 13°. Yanvarda temperatura —25° gacha pasayadi, iyunda 35—45° ga yetadi. Vegetatsiya davri 230 kun. Viloyatning turli qismlarida yog`in miqdori turlicha. Haqqulobod shahrida

o`rtacha yillik yog`in miqdori 230 mm, g`arbida 90–190 mm, sharqda 300–400 mm, tog` etaklarida 600 mm. Yog`inning eng ko`p kismi bahor va kuzda yog`adi. Daryolari yog`indan, tog`lardagi qor va muzliklardan suv oladi. Namangan (viloyat)da ko`plab mavsumiy soylar mavjud. Eng katta daryosi — Sirdaryo. U Norin va Qoradaryoning qo`shilishidan hosil bo`ladi. Norin va Sirdaryoga Chatqol tog`laridan oqib tushadigan Pochchaotasoy, Chortoksoy, Chustsoy, Olmossoy, Chodaksoy, G`ovasoy, Kosonsoy, Namangansoy kabi sersuv tog` daryolari kuyiladi. Kosonsoy, Chortoq, Eskiye suv omborlari, Oxunboboyev, Shimoliy Farg`ona, Katta Namangan kanallari qurilgan. Bahor va yoz boshlarida sodir bo`ladigan sel hodisalaridan saqlanish uchun sel omborlari barpo qilingan. Tuproklari prolyuvial (??), o`tloq, o`tloqi-botqoq, och tusli bo`z, ayrim joylarda sho`rxok, och tusli qo`ng`ir, jigarrang . Adirlar qumtosh, mergel, lyoss va chag`irtoshlar bilan qoplangan. Bahorda efemer (??) o`simliklar o`sadi, chorva mollari boqiladi. Tekislik qismlarida bo`z, ko`ng`ir tuproqlar, qadimdan dehqonchilik qilib kelingnidan tabiiy holati o`zgargan va unumdorligi oshirilgan. Kosonsoyda tipik va qoramtir bo`z tuproq, Namangan, Uchqo`rg`on, Chust tumanlarida och bo`z tuproq tarqalgan. Tekislik qismining ekin ekilmaydigan yerlarida sho`ra, shuvoq, lola, otquloq, Sirdaryo bo`ylarida betaga, astragal va boshqa o`sadi. Tog`larda archazorlar, yovvoyi olcha, olma va yong`oqzorlar uchraydi. Tog`larning baland qismi subalp o`tloklari — yozgi yaylovlardan iborat. Namangan (viloyat)da deyarli o`rmon yo`q. Namangan mevali o`rmon va o`rmon ko`chatzori mavjud. Cho`l va adirlar o`zlashtirilib yuborilganligi sababli bo`ri, tulki, kabon, yumronqoziqlar kam uchraydi. Tog`larda tog` takasi, sug`ur bor. Adirlarda kalamush, dala sichqoni, echkemar, tipratikan, cho`l toshbaqasi, turli xil ilon va kaltakesak ko`p. Qushlardan burgut, kaklik va boshqa bor. Qorabovur, yovvoyi o`rdak va boshqalar ovlanadi. Daryo, soy va boshqa suv havzalarida har xil baliqlar yashaydi, andatra keng tarqalgan. Podchaotasoy va G`ovasoyda qunduz ham uchraydi. Namangan (viloyat) xududining intensiv o`zlashtirilishi oqibatida sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar, baliklarning ko`p turlari kamayib bormoqda.

Aholining asosiy qismini o'zbeklar (88,4%) tashkil etadi, shuningdek, tojik (8,9%), kirgiz (1,0%), rus (0,7 %), tatar, ukrain, ozarbayjon, yahudiy, belorus, arman, qozoq va boshqa millat vakillari ham (jami 89 millat) yashaydi. Aholi zichligi o'rtacha 1 km² ga 292.8 kishi. Qishloq aholisi 1369,4 ming kishi, shaharliklar 808,8 ming kishi (2017).

Xo'jaligi. Namangan (viloyat) respublika ishlab chiqarish va madaniy taraqqiyotida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoatlari. Namangan (viloyat)da 170 dan ziyod sanoat korxonalari mavjud. Eng yirik sanoat korxonalaridan — mashinasozlik, avtomobillarni tuzatish, g'isht, yog'-ekstraksiya, paxta tozalash, oziq-ovqat (vino zavodi, pivo k-ti, "Namangan salqin ichimliklari", "Rohat", "Namangankonserva", "Shirinlik", "Kosonsoy-konserva" korxonalari), kimyo, "Elektroterm" ishlab chiqarish birlashmasining yetakchi korxonasi, ipak gazlamalar, badiiy buyumlar fabrikasi va h.k. 3402 kichik, 249 shirkat, 76 qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shular orasida: "Navro'z" O'zbekiston—Kanada, "Shohi So'zana", "Nestle-O'zbekiston", "Shams LTD", "Hyp", "Ohangar", "Chust pichog'i", "Namanganshina", "Kosonsoy-Tekmen", "Popfen", "Silk-Road", "Kasmir Deri", "Namanganqog'oz", "Yanis IV", O'zbekiston— Rossiya "Kem-tosh", "Shifo" korxonalari, O'zbekiston—Xitoy "Channa-Tekstil" qo'shma korxonasi, O'zbekiston—Turkiya "Kosonsoytekstil" va boshqa bor.

Qishloq xo'jaligi. Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i — paxtachilik. Namangan (viloyat) mamlakatda yetishtirilayotgan paxtaning 8—9% ini beradi. G'allakorlik, polizchilik, tokchilik, sabzavotchilik, ipakchilik va chorvachilik rivojlangan. Tekislikdagi sug'oriladigan tumanlarda chorvachilik, asosan, kora-mol, tog' oldilaridagi tabiiy o'tloqlarda qo'y va echki (jumladan, mayin junli) boqiladi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni 548,1 ming ga, shundan haydaladigan yerlar 219,8 ming ga, yaylovlar 287,9 ming ga, bog' va ko'p yillik daraxtzorlar 31,2 ming ga, tokzorlar 8,7 ming ga ni tashkil qiladi. Don ekinlari 80,4 ming ga, paxta 109,5 ming ga, kartoshka 1,3

ming ga, sabzavot 3,5 ming ga, poliz ekinlari 1 ming ga, ozuka ekinlari 14,4 ming ga maydonni egallaydi, 7760 ga o`rmonzor, 3 ming ga tutzor bor (2017). Yerning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 4 ming km kollektor drenaj tar-moklari qurilgan. Viloyatning hamma tumanlarida sug`oriladigan maydonning asosiy qismida paxta va don ekinlari ekiladi. Namangan (viloyat)da 13 ming 453 nf fermer xo`jaligi bor. Jamoa va xususiy xo`jaliklarda 667,1 ming qoramol (shundan 261,4 mingi sigir), 899,3 ming kuy va echki, 5,8 ming ot mavjud, parrandachilik bilan ham shug`ullaniladi.

Transporti. Avtomobil yo`llarining uzunligi 1,7 ming km (shu jumladan, qattiqqoplamalisi 1,6 ming km). Andijon—Ko`qon, Toshkent—Pop-Qo`qon—Andijon va Namangan—Uchqo`rg`on o`rtasida poyezdlar qatnaydi. Namangan—Marg`ilon—Farg`ona, Namangan—Andijon, Namangan—Qo`qon yo`nalishida avtobuslar qatnovi yo`lga qo`yilgan.

Farg`ona vodiysini respublika poytaxti bilan bog`lovchi Toshkent — O`sh avtomobil yo`lining Kamchiq dovonida uzunligi 358 km va 891 metr dan iborat bo`lgan ikkita tunnel qurilib foydalanishga topshirildi. Namangan (viloyat) havo transportining rivojlanishi 1941 yilda aerodrom qurish bilan boshlandi. 1984 yilda zamonaviy havo laynerlariga xizmat qiluvchi uchish va qo`nish maydoni ishga tushirildi. O`rta Osiyo davlatlaridagi shaharlar, shuningdek, Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Ufa, Simferopol, Novosibirsk, Magadan, Norilsk, Yakutsk, Krasnoyarsk, Mirniy kabi shaharlari va Ukraina poytaxti Kiyev shahri bilan muntazam aloqa yo`lga qo`yildi.

Madaniy-maorif, sog`liqni saqlash va sport. viloyatda 681 umumiy ta`lim maktabi (442,662 ta o`quvchi), 6 maxsus maktab-internat, 8 ta akademik litsey, 90 kasb-hunar kolleji (6235 o`quvchi) faoliyat ko`rsatdi.

Viloyatdagi 3 ta oliy o`quv yurti (Namangan universiteti, Namangan muxandislik qurilish va Namangan muhandislik iqtisodiyot in-tlari)da 16 mingdan ziyod talaba ta`lim oladi (2017). 1999—2001 yillar mobaynida barcha qulayliklarga ega bo`lgan jami 28 kasb-hunar kolleji (18 ming 875 o`quvchiga mo`ljallangan), hamda 2 akademik litsey

(1500 o`rin) bunyod etildi. Ular zamonaviy o`quv qurollari va texnika bilan jihozlandi. Viloyat o`quvchilari Respublika miqyosida o`tkaziladigan fan olimpiadalarida muntazam qatnashmoqdalar. Xalqaro AKSELS tanlovida g`olib chiqib xorijiy davlatlarda tahsil olib qaytayotgan o`quvchilar soni ham ortib bormoqda. AQShning o`quvchilar o`rtasida o`tkazilgan AKSELS tanlovida Namangan (viloyat)dan 40 o`quvchi ishtirok etdi.

Viloyatda 2 ta (Namangan o`lkashu-noslik va Pop arxeologik) muzey, 1 markaziy, 409 jamoat kutubxonasi (1 mln. nusxadan ortiq asar), 162 madaniyat uyi, 8 madaniyat va istirohat bog`i, 5 ta teatr (shu jumladan, Alisher Navoiy nomidagi viloyat musiqali drama teatri) bor.

Xalq hunarmandchiligi ayniqsa, Namangan va Chust shaharlarida qadimdan rivojlangan. Chustda pichoq, idish-tovoq, qishloq xo`jaligi qurollari ishlab chiqariladi, do`ppido`zlik, kashtachilik bilan shug`ullaniladi, xalatlarni uchun beqasam va atlas gazlamalar to`qiladi. Chust badiiy buyumlar fabrikasi bor.

Sog`liqni saqlash. Namangan (viloyat) da 11650 o`rinli 115 kasalxona, 250 dan ortiq dorixona, Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazining filiali, kuniga 30 ming bemorni qabul qilish quvvatiga ega bo`lgan 256 ambulatoriya poliklinika muassasasi ishlab turibdi. Namangan (viloyat)da o`tgan 10 yil mobaynida 218 qishloq shifokorlik punktlari barpo etildi, 41 qishloq shifokorlik ambulatoriyasi va feldsher-akusherlik punktlari qishloq shifokorlik punktlariga aylantirildi. Shu davrda 1505 o`rinli kasalxona, bir smenada 43,7 ming bemorni qabul qiluvchi poliklinikalar qurib bitkazildi, shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat ko`p tarmoqli kasalxonasi, viloyat kardiologiya markazi, o`sma kasalliklar, Namangan shahar onalar va bolalar fizioterapevtik, yuqumli kasalliklar kasalxonalari foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari, asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Namanganda Semashko nomidagi respublika fizioterapevtik ilmiy tadqiqot instituti, respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot

instituti, nevrologiya, endokrinologiya va urologiya markazlari faoliyat ko`rsatmoqda.

Viloyatda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo`yicha "Somom avlod" dasturi asosida 2000 yildan boshlab "Delfin", "Viktor" va boshqa zamonaviy apparatlar bilan jihozlangan "Ona va bola" skrining markazi ishlab turibdi. 6 ta sanatoriya (jumladan, "Chortoq", "Gulshan", "Kosonsoy"), Ko`ksaroy dam olish zonasi mavjud.

Sport. Viloyatdan sportning futbol, tennis, basketbol, voleybol, suv polosi, chim ustida xokkey, mini futbol, qo`l to`pi, shaxmat turlari bo`yicha sportchilar mamlakat musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqdalar. Namangan (viloyat)da "Navbaxor" markaziy stadioni, shuningdek, 28 ta stadion, "Pahlavon", "Dinamo", "Alpomish", "Sog`lom avlod" sport majmualari, 22 ta suzish havzasi, 54 ta tennis korti, 1 ta velotrek, 2 ta otchopar, 473 ta sport zali, 571 ta basketbol, 1754 ta voleybol, 375 ta qo`l to`pi, 422 ta kichik va 563 ta katta futbol maydon va maydonchalari bor. 590 mingdan ziyod kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanadi. Ularning 260 ming nafaridan ortigi o`smirlar. Namangan dovrugini oshirgan va an`anaga aylangan "Universia-da-2000" tadbiri katta umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi. Shaxmat, charm to`p buyicha Osiyo, jahon chempionatlari, saralash musobaqalari, tennischilarning "Buyuk ipak yo`li", "Satellit", "Fyuchers" kabi turlarining o`tkazilishi Namanganni dunyoga yana ham kengroq tanitdi. Namangan shahrining "Navbahor" stadioni, "Do`stlik" tennis majmuasi, "Yoshlik" suzish havzasi, Namangan shahridagi "Paxlavon", "Alpomish", "Dinamo" sport majmualari, To`raqo`rg`on tumanidagi "Kurash" majmuasi kabi sport inshootlarida xalqaro mavqedagi sport musobaqalari o`tkazib turiladi.

Adabiyoti. Namangan qadimdan xalq og`zaki ijodining deyarli barcha janrlariga boy o`lkadir. Shu diyorda yaratilgan va keng tarqalgan og`zaki ijod namunalarini xalq qo`shiqchilari, ertakchilari hozirgi kungacha sakdab kelganlar. Ulardan yozib olingan qo`shiqlar, termalar, asotirlar, rivoyatlar va ertaklar bir qancha to`plamlarga kiritilgan. Yangiqo`rg`on, Chortoq, Uchqo`rg`on, Norin, Namangan va boshqa

tumanlarda xalq dostonchilik maktablari davom etgan. Uchqo`rg`onlik dostonchilardan 20-asrning 20-yillaridayoq "Yozi bilan Zebo" dostoni yozib olinib, keyinchalik nashr qilingan.

Yozma adabiyot Namanganda ko`hna asrlardan boshlab rivojlanib keldi. Bu o`lka o`z ijodiy uslubi, ovozi va soziga ega bo`lgan bir qancha iste`dod egalarining vatanidir. Qadimiy Axsikent shahrida 11- 12-asrlarda so`z san`atining bir qancha yirik namoyandalari kamol topdilar. Markazi Axsikent bo`lgan Namangan adabiy muhiti shakllanib taraqqiy eta boradi. Abu Rashid-Ahmad Axsikatiy, Abul Vafo Axsikatiylar o`z davrining yetuk adib va olimlari edi. Yirik iste`dod egasi Asiriddin Axsikatiy malik ush-shuaro va amiri shuaro unvonlariga sazovor bo`ldi. O`zbek mumtoz adabiyotining namoyandasi Boborahim Mashrab shu o`lkada voyaga yetdi.

19-asrning 2-yarmida Nodim, Shavqiy, Ibrat, Hayrat, Xilvatiy va boshqa shoirlardan iborat ijodkorlar guruhi Namanganda e`tiborli bir adabiy muhitni vujudga keltirdi. Bu muhitda ijodiy kamolotga erishgan Muhammadsharif So`fizoda O`zbekiston so`z san`atkorlari orasida birinchi bo`lib xalq shoiri faxriy unvonini oldi. Ishoqxon Ibrat va Muhammadsharif Sufizoda 20-asr boshlarida jadidchilik, milliy uyg`onish harakatining yetuk vakillari sifatida faoliyat kursatdilar. Ular uz she`rlarida xalqni g`aflat va qoloklikdan chiqarish, millat ongini uygotish uchun ilm-ma`rifat zarurligini tashviq qildilar. Shoir Rafiq Mo`min 20-asr 20-yillar she`riyatida erk va haqiqat kuychisi bo`lib ta-nildi. Benazir iste`dod egasi Usmon Nosir o`zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan edi. Zafar Diyor bolalarning sevimli shoiri bulib qoldi. Yuldosh Shamsharov, Parda Tursun o`zbek nasri taraqqiyotida uz urinlariga ega bo`ldilar. Chustiy, Sho`xiy o`z she`rlari bilan el orasida tanildi.

20-asrning 2-yarmidagi Namangan adabiy muhiti ijodkorlarga boy bo`ldi. Jonrid Abdullaxonov, Turg`un Po`lat, Nuriddin Boboxo`jayev, Husniddin Sharipov, Habib Sa`dulla, Dadaxon Nuriy, Ermuhammad Nurmatov, Abdug`ani Abduvaliyev, Ahmad Tursun, Ziyovuddin Mansurov va boshqa turli janrdagi asarlari bilan tanildilar. Shoir Habib

Namangan (viloyat)da dastlabki radioeshittirishlar 1932 yilda boshlangan. 1990 yildan viloyatda telestudiya tashkil etilib teleko`rsatuvlar berila boshladi. 2000 yil da yangi telemarkaz qurilib foydalanishga topshiriddi. Telemarkaz Germaniya "Simens" firmasining zamonaviy televideo apparaturasi bilan jihozlandi.

Me`morlik va arxeologik yodgorliklari. Viloyatda 85 arxeologik, 15 ga yaqin me`moriy yodgorlik mavjud bo`lib, shahar va istehkomlar qoldiqlari: Axsikent (miloddan avvalgi 3—2-asrlar.), Munchoqtepa (jez davri), Oyritom, Mug`tepa (antik davr) va boshqa; me`moriy yodgorliklardan: Jome masjidi (18-asr), Chodak madrasa-masjidi (18-asr), Shayx Ishoq Eshon (19-asr), Ota Valixon to`ra (20-asr), Haqqulobod (1903) masjidlari, Yusupxon Eshon (18-asr), Mavlono Lutfullo Chustiy (1913) me`moriy majmualari, G`oyib Nazar (1892), Mulla Qirg`iz (1911 — 12) madrasalari, Xo`ja Amin (17-asr), Boy Hamadoniy (19-asr), Mavlono Namangoniy (1907) maqbaralari, Yusufboy Hoji uyi (20-asr boshlari) va boshqa mashhur.



Norin tumanining rivojlanishi

1980 vilda rivoilanish sxemasi

2000 vilda rivoilanish sxemasi

2010 vilda rivoilanish sxemasi

2017 vilda rivoilanish sxemasi



Norin tumanining iqlimi.


Iqlimi quruq subtropik, yozi quruq, issiq, qishi qisqa, sovuq va sernam. Yog'in-sochin kam (350—450 mm), bug'lanish katta. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —9,6 gradus (*eng kichik temperaturasi -29 gradus*), —iyul

oyining o'rtach temperaturasi 27,6° (*eng yuqori temperaturasi 44 gradus*), Vegetatsiya davri 236 kun. Tuproqlari yassi tekislik va qora bo'z tuproq, botqoq-o'tloqi va botqoq tuproqlar tarqalgan. Yovvoyi hayvonlardan chiyabo'ri, quyon va boshqalar, qushlardan yovvoyi o'rdak, yovvoyi kaptar, olaqanot, qaldirg'och, chumchuq, laylak, boyo'g'li va boshqalar uchraydi.

- Yillik o'rtacha shamol tezligi — 5,0 m/s
- Yillik o'rtacha havo namligi— 60 %
- Yillik o'rtacha harorat - +13,8 C°

Norin tumani iqlimi													
Ko'rsatkichlar	Yanv.	Fev.	Mart	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sen.	Okt.	Noyab.	Dek.	God
Tashqi havo harorati	-9,6	0,9	8,1	15,8	21,5	25,6	27,6	25,4	20,1	11,9	5,8	0,4	13,8
Temperatura pochv	-1,0	1,0	10,0	20,0	27,0	34,0	36,0	33,0	26,0	15,0	7,0	0	17,0
Osadka , mm	45	32	49	25	20	9	7	4	6	13	15	20	245
Tashqi havo namligi	4,7	5,0	7,4	10,7	12,7	13,8	17,2	17,4	12,5	9,6	7,2	5,2	10,3
Otnositel'naya vlajnost vozduxa	81	77	70	57	48	40	44	49	50	58	71	19	60
Deficit vlajnosti	1,4	1,7	4,6	9,7	15,4	12,2	22,1	16,4	13,1	7,0	3,1	1,4	9,8
Xavoning parlanishi. mm				96	166	226	237	209	146	84			1166
Shamol tezligi, m/sek	0,7	0,6	12	10	20	6	2	0,9	0,9	2	0,8	0,5	5,0
Yog'ingarchilik me'yor, mm	53	64	55	48	41	14	4	1	6	22	38	59	33,7

ADMINISTRATIV BIRLASHISHI



Namangan 11 ta tumandan iborat:

	Rayon	Aholi (2009)	Maydon (km ²)	Zichligi (chel/km ²)	karta
1	<u>Kosonsoy tumani</u>	177,800	512,0	347,2	
2	<u>Mingbuloq tumani</u>	91,600	740,0	123,4	
3	<u>Namangan tumani</u>	179.000	249,0	718,8	
4	To'raqo'rg'on tumani	193,330	309,0	625,6	

5	<u>Norin tumani</u>	118,300	207,1	571,2	
6	<u>Uychi tumani</u>	172,000	312,0	551,2	
7	<u>Pop tumani</u>	170,000	2941,0	57,8	
8	<u>Chortoq tumani</u>	164,000	377,8	434,1	
9	<u>CHust tumani</u>	217,000	300,0	723,3	
10	<u>Yangiqo'rg'on tumani</u>	206,100	540,0	381,6	
11	<u>Uchqo'rg'on tumani</u>	144,000	297,0	484,8	

Norin tumani doimiy aholi soni:

Yil	1979	1989	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2017
Aholi	▲70,6	▲88,1	▲90,5	▲101,3	▼112,8	▲118,9	▼122,5	▲123,7	▲124,2

Xaqqulobod shaxrining doimiy aholi soni:

Yil	1979	1989	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2017
Aholi	▲10,3	▲19,9	▲20,4	▲23,2	▼25,2	▲27,5	▼28,9	▲30,5	▲32,2

Xaqqilobod aglomeratsiyasiga Xaqqilobod o'zidan tashqari 5-10 km atrofidagi qishloq aholi punktlari ham kiradi. Ular qatorida Katta O'lmas, Sho'ro, Quyltepa va Andijon viloyatining To'rtko'l timani hududlari kiradi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar berayotgan yuksak samaralar ifodasini Norin tumani misolida ham ko'rish mumkin. Norin tumani ahli yurtimizda ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar va yangilanishlarda faol ishtirok etib, mustaqilligimizni mustahkamlash, Vatanimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, ma'naviy-madaniy hayotimizni yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Viloyatda joriy yilning birinchi yarmida yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishi 10,2 foizni tashkil etdi, sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishda barqaror o'sish sur'ati ta'minlanmoqda.

Mamlakatimizda hayotning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan o'zgarish va islohotlar zahirida avvalo inson manfaati, uning orzu-umidlari, ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishdek xayrli maqsad mujassamdir. Yurtimizda qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini tubdan yaxshilash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, zarur ijtimoiy infratuzilmani yaratish borasida hayotga izchil tatbiq etilayotgan dasturlar ham ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish masalasiga kompleks yondashish, bunday yangi qishloqlarda aholining ehtiyojlarini, uzoq istiqbolni hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, qishloq vrachlik punktlari, madaniy-maishiy obyektlar qurishga alohida e'tibor qaratdi.

Prezidentimiz yangi loyihada uy-joy qurilishi uchun ajratilgan yer maydoni 6, 4 va 2 sotixdan er maydonlarining ajratilganligi, avtomobil uchun alohida darvoza va uni saqlash uchun maxsus ayvon ko'zda tutilgani, xonalar xalqimizning mentaliteti va turmush tarzidan kelib chiqqan holda joylashtirilgani hamda er maydonlaridan oqilona foydalanilganligi odamlarimizning talab va istaklariga javob berishini qayd etdi.







10,11,12,13-rasmlar.

Mavjud holat.

Me'moriy - rejaviy yechim.

Xaqqulobod shahridagi Furqat maxallasi loyihalashtirilayotgan hudud **1700 m/kv maydonni egallaydi**. Loyihadan asosiy maqsad maxallada joylashgan aholini zamonaviy turar-joy binolari, zamonaviy muhandislik kommunikasiyalari mujaassamlashtirilgan namunaviy loyihalarni barpo etgan holda yahlit kompozitsion yechim takif etishdir.

Men o'z loyihamda **4500 kv/km joyni egallagan** maxalla hududini tashkil etish masalasini hal etganman. Loyiha ustida ishlash jarayonida ushbu hududni tashkil etuvchi mavjud turar-joy binolari ham ma'nan, ham jismonan eskirganligini hisobga olgan holda ulardan vos kechish masalasini qo'ydim. Men loyihalashtirgan maxalla uchun umumiy kichik jamoat markazi tashkil qilindi. Maxalla hududida 3, 2 va 1 qavatlardan iborat bo'lgan turar-joy binolarida foydalanildi. Binolarni loyihalashda havoning aylanishi, er osti suv sathi 2-4 m tashkil etganligi sababli tashqi namlik va karroziyaga qarshi gidroizolyatsiya ishlarini amalga oshirilsh, er osti suv sathini pasaytirish uchun tik quduq (gorizontal va vertikal) larni qurish va mavjud kollektorlarni tozalsh orqali sizot suvlarni beton ariqlar orqali shahardan tashqariga chiqarishdan iborat. Ko'cha va maydonlarda manzarali daraxtlarni ekish orqali havoni yanada tozalashga va ochiq havoda dam olishga hizmat qiladi. Bu ham

bolalarni salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Hudud hisob-kitobga ko'ra 4305 kishiga mo'ljallangan bo'lib, shundan 26 %i ya'ni, 1101 ta o'quvchi uchun ta umum ta'lim maktabi va 19 % yani 815 ta maktabgacha yoshdagi bolalarning 75 %i, ya'ni 611 nafar bolaga 2 ta bog'cha barpo etish mo'ljallangan. Maktab va bog'cha binolari me'yoriy hizmat ko'rsatish radiusiga amal qilgan holda hudud bo'ylab joylashtirilgan.

////////////////////////////////////

Turar joy fo'ndining o'rtacha zichligi **82.3 m2/ga**. Umumiy turar joy fo'ndi esa 96722 m2 ni tashkil etadi.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida kichik jamoat markazi tashkil etilgan. Markaz hududida esa favvoralar atrofida sayr qilish, o'tirib suhbat o'tkazish, muzqaymoq yeyish, salqin ichimliklar ichish, ro'likli konki, skeytlarda va velosipedlarda uchish, kolyaskada yosh bolalar bilan sayr qilish imkoniyati mavjud. Turar-joy binolari guruhli qilib tashkillashtirilgan. Har bir guruhda turar-joy hovlilari mavjud. Hovlilarda bolalar o'ynashi, kattalar suhbat qurishi, avto egalari mashinalarini vaqtinchalik saqlashi uchun sharoitlar yaratilgan. Barcha bino va inshootlar o'zaro piyodalar yo'lkalari bilan qulay tarzda bog'langan. Bundan tashqari mavze hududida maroqli sayr qilish uchun ko'kalamzorlarga boy bo'lgan alleya mavjud. Alleyada nafaqat piyodalar uchun balki velosiped haydovchilariga ham yo'laklar mavjud. Mavze hududida va uning chegaralarida transport va avtomobil qatnovi uchun qulayliklar yaratilgan.

Mavze hududi ko'kalamzorlashtiriladi. Buning uchun soya beruvchi va dekorativ daraxtlar mavsumiy gullaydigan butalar, qishin-yozin ma'lum bir ketma-ketlikda gullaydigan anvoi gullar ekish rejalashtirilgan.

Bu esa aholining ushbu shovqindan, changdan, havf-hatardan yiroq bo'lishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari alleya hududida favvorali maydon mavjud bo'lib, u aholiga maroqli hordiq chiqarishga yordam beradi.

Mavze ko'rsatkichlarini hisoblash.

1. Mavze maydoni: $M_{kt} = 4500 \text{ kv/km}$

2. Turar-joy fo'ndining o'rtacha zichligini aniqlash.

4 qavatli binolar - 2 %

3 qavatli binolar - 4 %

2 qavatli binolar - 45 %

1 qavatli binolar - 49 %

Jami: 100 %

Turar joy fo'ndining o'rtacha zichligi quyidagi fo'rmula asosida topiladi:

$$Z_{kt} = \frac{100\%}{\frac{F_1}{a_{k1}} + \frac{F_2}{a_{k2}} + \frac{F_3}{a_{k3}}}$$

$F_1; F_2; F_3$ – turar-joy binolari qavatlar turi bo'yicha umumiy turar-joy binolaridan foiz miqdori.

$Z_{K1}; Z_{K2}; Z_{K3}$ – me'yor bo'yicha kichik tumanning qavatlar soniga ko'ra turar-joy fo'ndining zichligi.

$$Z_{kt} = \frac{100\%}{\frac{25\%}{4800} + \frac{30\%}{5400} + \frac{28\%}{6300} + \frac{17\%}{6700}} = 5643 \text{ m}^2/\text{Ga}$$

Shunda 1 Ga maydonga turar-joy fo'ndi zichligi aniqlandi.

3. Turar-joy fo'ndini aniqlash. Bu umumiy kichik tuman bo'yicha turar-joy fo'ndi qancha bo'lishidir. U quyidagi fo'rmula asosida topiladi.

$$Z_{qur} = M_{kt} \times Z_{kt}$$

Bunda Z_{qur} – umumiy turar-joy fo'ndi.

$$Z_{qur} = 54 \times 5643 = 304\,722 \text{ m}^2$$

4. Turar-joy binolari turlari va sonini aniqlash.

304722 m^2 ning – 25% i – 76180 m^2 – 5 qavatli uy.

304722 m^2 ning – 30% i – 91417 m^2 – 7 qavatli uy.

304722 m^2 ning – 28% i – 85322 m^2 – 9 qavatli uy.

304722 m^2 ning – 17% i – 51802 m^2 – 12 qavatli uy.

a) $310 \times 5 = 1550 \text{ m}^2$ – 5 qavatli binoning bitta bloki umumiy maydoni.

76180 m^2 – 5 qavatli binoning umumiy maydoni bo'lgan holda:

$76180 / 1550 = 49$ ta 5 qavatli uy.

b) $310 \times 7 = 2170 \text{ m}^2$ – 7 qavatli binoning bitta bloki umumiy maydoni.

91417 m^2 – 7 qavatli binoning umumiy maydoni bo'lgan holda:

$91417 / 2170 = 42$ ta 7 qavatli uy.

c) $310 \times 9 = 2790 \text{ m}^2$ – 9 qavatli binoning bitta bloki umumiy maydoni.

85322 m^2 – 9 qavatli binoning umumiy maydoni bo'lgan holda:

$85322 / 2790 = 30$ ta 9 qavatli uy.

d) $310 \times 12 = 3720 \text{ m}^2$ – 12 qavatli binoning bitta bloki umumiy maydoni.

51802 m^2 – 12 qavatli binoning umumiy maydoni bo'lgan holda:

$51802 / 3720 = 13$ ta 12 qavatli uy.

5. Aholi sonini topish. Aholi soni quyidagi fo'rmla orqali topiladi.

$$A_{kt} = \frac{Z_{qur}}{N_k} = \text{kishi}$$

Bunda, A_{kt} – kichik tuman aholi soni.

N_k – bir kishiga umumiy yer maydondan ajratilgan me'yoriy hudud, (me'yoriy hujjatlar bo'yicha 20 m^2).

Demak, butun kichik tuman hududida umumiy turar- joy fo'ndi 245415 m^2 bo'lsa, undan har 20 m^2 bir kishiga ajratilgan me'yoriy hududdir, bundan kelib chiqib aholi sonini topamiz:

$$A_{kt} = \frac{304722}{22} - 13850 \text{ kishi}$$

6. Maktablar tiplari va sonini aniqlash.

Maktab bollari umumiy aholi sonining 18 % ni tashkil etadi.

$$13850 / 100 \times 18 = 2493 \text{ ta bola.}$$

Ulardan 4 % i, ya'ni 100 ta bola 15-16 yoshli o'smirlar ko'llejga boradi.

Demak 2393 ta bola maktabga boradi.

2393 ta bolaga 2 ta, sig'imi 1200 ta bolaga mo'ljallangan maktab to'g'ri keladi.

Bir o'quvchiga 21 m^2 hudud to'g'ri kelishini hisobga olgan holda maktab hududini ($1200 \times 21 = 2.5$ ga) 2.5 ga deb olamiz.

7. Bolalar maktabgacha muassasalari turi va sonini aniqlash.

Bu yoshdagi bolalar umumiy aholining 14 % ini tashkil qiladi.

$$13850 / 100 \times 14 = 1940 \text{ ta bola.}$$

Ulardan 75 % i ya'ni 1455 bola, bolalar bog'chasiga boradi.

Demak, 1455 ta bolaga, sig'imi 300 ta o'rinli 5 ta bog'cha to'g'ri keladi.

Har bir bolaga 35 m^2 hudud taqsimlanganda, 1 ta bog'chaga 1 Ga yer maydoni to'g'ri keladi.

8. Kichik tuman ko'kalamzor hududlarini aniqlash. Me'yor bo'yicha aholining har biriga 6 m^2 ko'kalamzor hudud ajratilishi lozim.

$$13850 \times 6 = 83106 \text{ } m^2$$

9. Kichik tuman jamoat markazi hududini aniqlash. Jamoat markazi uchun har bir kishiga 3 m^2 ajratiladi.

$$13850 \times 3 = 41533 \text{ } m^2$$

10. Garajlar va avtomobil turish joylari sonini aniqlash.

Avtomobillar 5 kishiga 1 ta deb olinadi.

$$13850 / 5 = 2770 \text{ ta mashina.}$$

Ushbu avtomobillarning 75 %i garajlar loyihalanadi.

$$2770 / 100 \times 75 = 2077 \text{ ta mashina.}$$

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish

BO'LIMI

Konsultant: O.Sottiboev

Rahbar: N.G'ofurov

Diplomant: D.Mirzakamalova

Haqqulobod shahrida yangi taklif etilayotgan maxalla loyihasiga
obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'limi.

Reja:

1. Maxalla hududini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish haqida umumiy ma'lumot.
2. Furqat maxalla hududining tabiati, ekologik muammolari va uning yechimi.
3. Maxalla hududlariga har xil maqsadga yo'naltirilgan maydonchalar joylashtirish.
4. Furqat maxalla hududining ichki yo'larini ko'kalamzorlashtirish

Maxalla hududi tuzilmasini landshaftini tashkil etish

Maxalla hududi tuzilmasini landshaft tashkil etilishi qo'shnichilik munosabatlari, dam olish, jamoatchilik bo'sh vaqti va turli darajadagi hududlarda dam olishni piyodalar uchun yetib borish imkoni borligining psixologik qulayligini hisobga olgan holda rejalashtiriladi. Masalan, shaxsiy dam olish kichik bog' hududida kichik hovlilarda, ochiq xonadon ayvonchalarida va birlamchi uy oldi maydonlarining umumiy hovlilarida tashkil etiladi (odatda bu yerda oila a'zolari va kichik yoshdagi bolalar kattalarning nazorati ostida dam oladi;

kichik maktab yoshidagi bolalarning va qariyalarning dam olishi uy oldidagi yarim jamoatchilik maydonlarida tashkil etiladi; o'smirlar va kattalarning dam olishi maxallaning jamoatchilik maydonida tashkil etiladi. Yoshlar dam olish va bo'sh vaqtini turar joydan tashqarida (shahar yoki tuman rekreatsiyalarida) o'tkazishni afzal ko'radi.

- Landshaft–rekreatsion fazolarning barcha sanab o'tilgan elementlari turar joy qurilishi landshaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo'sh vaqtni o'tkazish muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta'minlashda o'zaro bog'lovchi ahamiyatga ega bo'ladi. Muhitning qulay mikroiklimiy, sanitariya-gigienik va estetik tavsiyalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda landshaftni tashkil etishda o'simliklarni to'g'ri tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.


- Aholining turli guruhlarining dam olishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi bolalarning (0-4 yosh), maktabgacha yoshdagi bolalarning (5-7), kichik yoshdagi o'quvchilar (8-10 yosh), o'rta yoshdagi o'quvchilar (11-14 yosh), o'qiyotgan yoshlar (15-22 yosh), ishlayotgan yoshlar (23-35 yosh), mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi (36-60 yosh) va nafaqaxo'rlar (60 va undan ortiq yosh) dam olishi hududlarini funksional zonalarga ajratishni ko'zda tutish zarur.

- Aholining har bir guruhi o'z vaqt byudjetiga ega turar joy tuzilmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o'zining o'ziga xos talablarini qo'yadi:
- Taxminan 70% maktabgacha yoshdagi bolalar yakshanbadan boshqa kunlar maktab muassasalarida bo'lishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nisbatan ham harakatchan bo'lishadi va odatda uyga kirish joylari yaqinida sayr qilib yurishadi. Ko'pincha ularni oiladagi katta yoshdagi kishilar kuzatib yurishadi, bu kattalar uchun o'yin maydonlarida yoki ular yonida dam olish joylari tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin maydonlari kichik shakllar to'plami bilan jihozlanishi kerak, bunday yoshdagilar uchun qum chuqurlari, past arg'imchoqlar, sirpanib tushuvchi balandliklar va boshqalar o'ziga xosdir.
- Kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari kunning ikkinchi yoki kechki yarmini maxallaning o'yin maydonchalarida o'tkazishadi. Ular maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan ancha harakatchan va mustaqil bo'lishadi, ularning o'yin maydonchalari kichik shakllarning ancha keng to'plamiga ega bo'lishi va iloji boricha turar joy binolaridan ko'kalamzor bilan, maktabgacha yoshdagi va kattalar dam oladigan maydonchalar bilan ajratilishi kerak.
- O'rta va katta yoshdagi maktab o'quvchilari kunning ko'p qismini maktabda o'tkazishadi va vazifalarini bajarish uchun ko'p vaqt sarflashadi. Bu guruhdagi bolalar uchun hududning boshqa komponentlaridan ajratilgan asosan sport maydonlari barpo etilishi kerak.
- Kattalar va yoshlar ish kunlarini o'rtacha 10-11 soat turar joylaridan tashqarida o'tkazishadi (ish, o'qish, madaniy-maishiy va tomoshabop joylarga, stadionlar va shahar parklariga borish). Aholining bu guruhi mikrorayon hududidan eng kam foydalanadi.


- Pensionerlar vaqtining ko'p qismini uy yaqinida o'tkazishadi. Ularning taxminan 20% maktabgacha yoshdagi bolalar bilan, 60% i esa bolalarsiz dam olishadi. Ular uchun uy yaqinida maydonchalar quriladi.
- Turar joylar qurilishida har xil kompozitsion-fazoviy qurilmalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek turar joy guruhlari, masalan, perimetral va chiziqli kompozitsion-fazoviy qurilmalar quriladigan va aloxida turgan uy-joy oldidagi hududlarning landshaftini tashkil etishi namunalari ko'rsatilgan. Turar joylar maydonchalarining normasi pastdagi jadvalda berilgan.
- **Turar joy hududlariga har xil maqsadga yo'naltirilgan maydonchalar joylashtirish.**

Nº p/p	Maydonchalar turlari	Normativlar
	Bolalar maydonchalari	0,55 - 0,7 m ² /k.
1	Kichik yoshdagi o`quvchilar uchun	0,2 m ² /k.
2	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35-0,5 m ² /k.
3	Sport maydonchalari	1.00 m ² /k.
4	Dam olish maydonlari	0,2 m ² /k.
5	Xo`jalik maydonlari	1.00 m ² /k.
6	Yo`laklar	10 %
7	Ko`kalamzorlashtirilgan maydonlar	30 %

Loyihalash tajribasi shuni ko'rsatadiki, turar joy hududlarida 1m²/kishi hisobida sport maydonchalari joylashtirish mumkin emas. Faqatgina 0,7m²/ kishi hisobida joylashtirish mumkin. Qolgan maydonchalar yoki ularning katta qismini bevosita turar joy qurilishi hududidan tashqarida joylashtirish mumkin.



14-rasm. Turar joy guruhlari hududlarini landshaftini tashkil etishga misol:




15-rasm.

Alohida turgan uy oldi hududi landshaftini tashkil etishga misol:

Maktabning sportga tegishli o'zagini sport bilan ta'minlash hisobiga kiritilmaydi. U yerdan o'quv mashg'ulotlari uchun yilda faqat 4 oy (aprel-may, sentyabr-oktyabr) atrofida foydalanilishi mumkin, qolgan vaqtda esa aholining bolalar guruhi foydalanishi mumkin.

Shuning uchun turar joy hududini sport bilan ta'minlash hisobiga ularni ham qo'shib umumiy maydonlar sonini kamaytirish mumkin. Bu yechim hududini ko'proq samarali foydalanish imkonini beradi.




- Turar joy hovlilari hududida aholi dam olishi uchun mo'ljallangan maydonchalardan tashqari har xil maqsadlarga yo'naltirilgan xo'jalik maydonchalarini ham loyihalash kerak. (Kirlarni quritish uchun, gilam qoqish uchun, axlat yig'ish qurilmalari uchun). Axlat yig'ish maydonchalari uylarda axlat quvurlari bo'lgan taqdirda ham loyihalanadi. Bunday hollarda ular kvartal ichidagi yo'l va yo'laklardan yig'iladigan yirik axlat yig'ish vazifasini o'taydi.

- Turar joy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalari, maktablar, bog'chalar va bekatlarga eng qisqa va qulay yetishni ta'minlovchi yo'l-transport tarmog'i ham o'rin egallashi lozim.

- Turar joy tashqi muhitining mikroiqlimiy qulayligining asosiy sharti hududning soya tushish va havo almashishi tartibini hisobga olgan eng optimal landshaft elementlarini fazoviy tashkil etish hisoblanadi. Bu borada mahalliy iqlim sharoitida ochiq va soya muhitlarning to'g'ri nisbati hisobga olinishi lozim (daraxtlar va soyabonlar, pergolalar va boshqalar bilan). Turar joy hududlarini landshaft tashkil etishda ko'kalamzorlashtirish prinsiplarini bilish shart. Shuning uchun daraxtlarning soyalantirish rejimini va landshaft elementlarini joylashtirilishini olish kerak.

- Yashash hududlariga yashil o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, ko'kalamzor hududlarda havo almashish imkoniyati bo'lsin. Havo aylanishiga to'sqinlik qiluvchi baland yashil ekinlar bilan o'ralgan o'tloqlar, maysazorlar, xiyobonlar yaratishda teskari natija hosil bo'lishi mumkin, ya'ni ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda harorat yuqori bo'ladi.




Turar joy hududlarini daraxtlar bilan soylashtirish soatlarini landshaft tashkil etishda inobatga olish:

A - maydonchalar, B – yo'lakchalar, V - sport maydonlari.

Turar joy hududlarini shahar ichki yo'larini ko'kalamzorlashtirish va katta ko'chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim.

Axlat yig'iladigan xo'jalik maydonchalari o'rab turgan hududdan ajratilishi va butun kun davomida qalin daraxt va butalar ekish bilan soya etilishi lozim. Choyshab qurilishiga mo'ljallangan ho'jalik maydonlariga shunday joy tanlash kerakki, butun kun davomida quyosh tushishi va yaxshi havo aylanishi lozim.

Bolalar, sport maydonchalari va dam olish maydonchalari atrof hududdan ularda havo yaxshi aylanishini hisobga olgan holda ajratiladi. Shuning uchun bu maydonchalar atrofiga panjarasimon butalar va daraxtlar ekiladi.




Turar joy hududlarini daraxtlar bilan soyalashtirish soatlarini landshaft tashkil etishda inobatga olish:

A - maydonchalar, B – yo'lakchalar, V - sport maydonlari.

Turar joy hududlarini shahar ichki yo'larini ko'kalamzorlashtirish va katta ko'chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim (6, 7-chi rasm). Axlal yig'iladigan xo'jalik maydonchalari o'rab turgan hududdan ajratilishi va butun kun davomida qalin daraxt va butalar ekish bilan soya etilishi lozim. Choyshab quritilishiga mo'ljallangan xo'jalik maydonlariga shunday joy tanlash kerakki, butun kun davomida quyosh tushishi va yaxshi havo aylanishi lozim.

- Bolalar, sport maydonchalari va dam olish maydonchalari atrof hududdan ularda havo yaxshi aylanishini hisobga olgan holda ajratiladi. Shuning uchun bu maydonchalar atrofiga panjarasimon butalar va daraxtlar ekiladi.



Turar joy hududlarini daraxtlar va butalar bilan ko'kalamzorlashtirish misollari

- Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari maydonchalarida bolalar cho'milish basseynlari,
- Bolalar maydonlari hisobiga kirmaydigan maydonlar joylashtirish mumkin. Ba'zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdagi, ya'ni 9-13 yoshgacha maktab o'quvchilari uchun umumiy kompleks maydonchalar qo'llash mumkin. Bunday maydonchalar o'lchamlari 350-400 m bo'ladi (jadvallar).
- Bolalar kompleks maydonchalarini o'lchamlari

Bolalarning yoshga ko`ra guruhi	Ming kishiga maydonlar soni	Maydonlar o`lchami, m
Bog`cha va maktabgacha yoshdagi (7 yoshgacha)	2	150-200
Kichik maktab yoshidagi (7 dan 13 yoshgacha)	3	200-250

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari va bog'cha yoshidagi bolalar maydonlarini birlashtirish tavsiya etilmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar maydonchasini kattalar dam olish maydoni bilan birlashtirish mumkin.

Doim qo'llaniladigan kichik shakllardan tashqari har xil yog'och va betondan tayyorlangan original qurilmalar qo'llanilishi mumkin.

Sport maydonchalari turlari

Sport maydonchalari turlari	Maydonlar o'lchamlari		1000 kishilik turar joy guruhlar uchun maydonlar soni		
	umumiy	o'yin maydoni	0,5 - 6,5	3, 5 - 5,5	1,5 - 3,5
Basketbol maydomaydoni	30x80	26x14	2-3	-	-
Voleybol	25x14	9x18	3-4	2-3	2-4
Tennis	40x20	24x11	1 -2	1	-
Stol o'yinlari	4,5x8	-	3	2	2
Gimnastika o'yinlari uchun	600m ²	-	1	1	-

1,5-2,5 ming kishilik alohida turar uylar guruhlarida 22x25 m o'lchamli kompleks sport maydonlari loyihalanishi mumkin. Bularga maktab sport maydonlari kirmaydi. Sport maydonlari bino oynalariga 25 m dan yaqin bo'lmasligi kerak. Yoshi katta aholi uchun maydonlar o'lchamlari belgilanmaydi. Bir maydonchani eng qulay o'lchamlari 25-75 m². Ba'zi hollarda 150 m.gacha ruxsat etiladi.

- Yo'l va yo'lak tarmog'i hovli yo'laklariga qo'shimcha sifatida xizmat qilishi lozim. Ularga ham yo'l-transport tarmoqlariga qo'yiladigan talablar tegishlidir. Turar joy guruhlar hududida harakat maqsadi va intensivligidan

kelib chiqqan holda piyodalar yo'lagi eni quyidagi ma'lumotlarga asoslanib belgilanadi.

- Turar joy hududlarida yashil o'simliklarni hududning havo almashinini hisobga olib joylashtirish lozim. Baland yashil ekinlar bilan o'ralgan o'tloq, maysazor, xiyobonlarda havo harakati sekin bo'ladi. Bu havo haroratining ko'tarilishiga olib keladi. Turar uylar hududlarini shahar ichki yo'l va ko'chalaridan quyuq daraxt va butalar ekish orqali ajratish lozim.

Turar joy piyodalar yo'laklarining eni

Yil davomida foydalaniladigan transit yo`llar	3 m
Tranzit va mavsumiy yo`laklar	2,25-1,5m
Yil davomida va mavsumiy qo`llaniladigan yo`laklar	0,5- 0,75m

Bolalar bog'chalarining landshaftini tashkil etish

- Bolalar bog'i hududida quyidagi zonalar joylashtiriladi: bolalar bog'i, o'yin maydonchalari mavjud bo'lgan yozgi ayvon, yashil ekinlar, xo'jalik hududi, yo'llar, yo'laklar.

- Ikki guruhga mo'ljallangan ayvonli maydonchalar bolalarning asosiy vaqtini o'tkazadigan, shuningdek ularning organizmini toblash va dam olishini tashkil etish uchun mo'ljallangan. Maydonchani shunday loyihalash kerakki, tarbiyachilar har qanday vaqtda bolalar nima bilan shug'ullanayotganini ko'rib turishi lozim. Har xil guruhdagi bolalarning o'zaro aloqasiga yo'l qo'ymaslik uchun har bir maydonchani boshqalaridan yashil ekinlar bilan ajratiladi.

Guruh maydonchalar hududini quyidagi zonalarga ajratish:

Zona	Bolalar yoshiga qarab zona o`lchamlari	
	3	3 dan 7 yoshgacha
Soyabon	32	32
Jismoniy tarbiya uskunalari	20	50
Guruh o`yinlari	50	55
Qum maydonchasi	15	15
Tinch dam olish	33	28


Soyabonlar guruh mashg'ulotlari va faol harakat talab qilmaydigan (kitob o'qish, qo'g'irchoq o'ynash) o'yinlar uchun mo'ljallangan. Tinch dam olish hududida bolalar skameykalari va stollari joylashgan "yashil cho'ntaklar" qo'llaniladi. Maydonchada soyabondan tashqari qum maydonchasi bo'lishi kerak. Maydonchada bolalar fantaziyasini rivojlantiradigan va oson yig'iladigan uskunalar katta ahamiyatga ega.

- Umumiy maydonlarni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun quriladi. Unga jismoniy tarbiya maydoni, tirik burchak, poliz, mevali bog', cho'milish hovuzi, velosiped uchish uchun halqasimon yo'lak va h.k. kiradi. Jismoniy tarbiya maydoni (250 m²) tirmashib chiqish, voleybol, basketbol, sakrash va boshqa harakatchan o'ynilar uskunalari bilan jihozlanadi. Tirik burchak (20 m²) bog'chaning xo'jalik hududiga yaqin joylashtiriladi. Bu yerda quyon, tovuq, va boshqa kichik hayvonlar uchun qafaslar joylashtiriladi. Polizga janub tomondan soya tushmasligi kerak. Jo'yaklar iloji boricha sharqdan g'arbga qartaib joylashtirilishi lozim. Polizni karam, pomidor, ildizmevali ekinlar uchun hududlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Jo'yaklar eni 1 m, uzunligi 3 m. Bolalar bog'i landshaftini tashkil etish 8-chi rasmda keltirilgan.

- Mevali bog'da asosiy mevali daraxt va butalar turlari (olma, nok, olcha, gilos, smorodina, malina) bo'lishi lozim. Bolalar cho'milish hovuzi (25-30 m² va 25-50 sm chuqurlikda) bolalarni toblash va suv o'yinlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari kemalar suzishi uchun ariqlar o'tqazish tavsiya etiladi. Bu ariqlar guruh maydonlari yonidan o'tqazilishi mumkin.

- Bolalar bog'chasi hududi perimetri bo'ylab butalar 2 qator tirik panjara qilinadi va eni 5m dan kam bo'lmagan chiziqda daraxt qatori ekiladi. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan maydonchalar atrofidagi daraxtlar havo aylanishi hisobga olingan holda joylashtiriladi. Daraxt va butalar shunday joylashtirilishi kerakki, maydon hududining katta qismiga (55%) kun davomida quyosh tushishi lozim. Daraxt va butalar bog'cha binosiga soya qilmasligi kerak, shuning uchun daraxtlar binoga 10m dan yaqin ekilmaydi, butalar esa 5 m dan yaqin ekilmaydi. Daraxtlar yo'lak chetidan 1 m uzoqlikda ekiladi.

- Gulzorlar asosan maydon va binolarning kirish qismiga shuningdek, bino va xalqa yo'li o'rtasida yo'lak qilib joylashtiriladi. Har bir guruh maydonchalari atrofiga gulushtalar ekish tavsiya etiladi. Gulzorlarga ko'pyillik gullar (popukli floks, pion, del`finium, akvilegiya, rudbekiya va h.k.) va uzoq gullaydigan bir yillik gullar (xitoy astrasi, antirrium, petuniya, sinniya, klarkiya, portulak, kosmeya va b) ekish maqsadga muvofiq.



19- rasm. 240 o'rinli bolalar bog'chasi hududida landshaft tashkil etilishi:

1 -soyabon; 2 - qumli maydoncha; 3,4 - cho'milish hovuzi; 5 - tirmashib chiqish uchun devor; 6 - uchish joyi; 7 - choyshab quritish uchun ustunlar; 8 - panjara.

Xo'jalik hovlisi hudud chegarasiga bevosita tutashgan bo'lib, boshqa hududlardan hatto bolalarning bexosdan kirib qolishiga yo'l qo'ymaydigan darajada ajratilishi lozim. Xo'jalik hovlisi axlat yig'ish qurilmalari, kir quritadigan maydonchalar va xo'jalik omboridan tashkil topadi. Yo'llar eni 3,5 m va 12x5,5 m li orqaga burilish maydonchasi bilan loyihalanadi. Ularni bino bo'ylab eng qisqa masofada va fasad qismidan 8 m uzoqlikda loyihalanadi. Binodan bolalarni guruh maydonchalariga va guruh maydonchalardan umumiyga o'tishi uchun 1-1,5 m li yo'laklar yotqiziladi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maydonchalari o'zaro velosiped uchish uchun mo'ljallangan halqa yo'lak bilan bog'lanadi. Yo'laklar qattiq bo'lmagan qoplamalar bilan qoplanadi (g'isht, qum, shag'al, graviy, mayda graviy va h.k.).

Maktab hududini landshaft tashkil etish


Maktab hududi qizil chiziqdan kamida 15 m uzoqlikda alohida joylarga joylashtiriladi. Maktab hududi chegarasidan turar uylar devorigacha masofa agar kirish mavjud bo'lsa, 10 m, agar kirish bo'lmasa 5 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Hudud qulay shaklda, yaxshisi to'rtburchak shaklida bo'lib, yon atrofidagi hududlardan panjara va butalar bilan ajratiladi. Maktabga yo'llar eng qisqa yo'nalish bo'ylab loyihalanadi. Hudud ko'cha bilan maxsus yo'l yoki turar uylarni shahar yo'li bilan bog'lovchi kvartal ichki yo'li bilan bog'lanadi.

Maktab hududi landshaftini tashkil etishda bino joylashishi katta ahamiyatga ega. Binoni hududning bir tomoniga joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu gorizontaal tekislik kerak bo'ladigan sport va boshqa maydonlar joylashtirish uchun qulay.

Maktab landshaftini tashkil etish 4 ta asosiy funktsional zonalashga asoslanib (kirish, dam olish, o'quv-tajriba, xo'jalik) loyihalanadi (9-chi rasm).

Kirish hududi yig'ilishlar o'tkaziladigan maydonni o'z ichiga oladi. Rekreatsiyahududi eng katta hudud hisoblanib, unga faol va tinch dam olish hududlari kiradi. Faol dam olish hududiga kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilari dam olishi, sport hududi kiradi.



20-rasm. 1000 o'rinli maktab hovlisini landshaft tashkil etilishi:

1-kichik sinf o'quvchilari uchun rekreatsiya; 2-katta sinf o'quvchilar uchun rekreatsiya; 3-kichik sinf o'quvchilari uchun o'quv-tajriba joyi; 4-xo'jalik va tabiiyo'simliklar o'stirish uchun yer maydoni; 5 - xo'jalik zonasi; 6- issiqxonauchastkasi; 7-tinch dam olish hududi; 8-bog'; 9-ertalabki lineyka maydoni;10-astronomiya va geografiya maydonchalari; 11-kichik sinf o'quvchilario'ynashlari uchun maydonchalar; 12-kichik sinf o'quvchilari uchun sportmaydonchalari; 13-maktab stadioni.

- Sport hududiga esa futbol maydoni, kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilari uchun sport maydonlari to'plami kiradi. Tinch dam olish hududi dam olish burchaklari mavjud bo'lgan istirohat bog'chasi ko'rinishida loyihalanadi. O'quv-tajriba hududi o'z ichiga mevali bog', poliz ekinlari va sabzavotlar uchun, kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun tajriba uchastkalari, issiqxonalarni oladi.

- Xo'jalik hududida omborxonalar, uskunalarni olib kelish va tushirish uchun maydonchalar, asbob-uskunalar saqlash joyi va axlat yig'ish qurilmalari uchun maydonchalar va boshqalar joylashtiriladi.

Aholi yashash joylari landshaftini tashkil etishning maqsadi ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitektura vositalari bilan yaxlit, garmonik (uyg'un) shahar muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bunda bosh vazifa atrof - muhitning tabiiy va sun'iy komponentlari orasidagi optimal munosabatni uning barcha ierarxik sathlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda tabiatning insonga sog'lomlashtiruvchi ta'sirini kuchaytirish va sanoat hamda qurilishning tabiatga salbiy ta'sirini minimumga keltirish.

Aholi turar-joylari, shaharlar, asosan yirik shaharlar turli funktsional hududlarga bo'linadigan maydonlardan iborat. Bular markaziy, atrof hududlari, sanoat, rekreatsion hududlar, tashqi transport hududlari va b. Bu hududlar landshafini tashkil etish aniq funktsional vazifaga, hamda, rejaviy va

fazoviy tashkil etishning o'z xos jihatlarini belgilovchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik, shahar qurilishi va boshqa omillarga bog'lik.

Umuman, aholi turar-joy sistemasida joylashgan ladshaftni tashkil etish izchillik bilan "yuqoridan pastga tomon" – avval joylashtirishning guruhli sistemasi va shahar bosh rejasi miqyosida, keyin esa shahar rejaviy tumani miqyosida amalga oshirilishi kerak va shundan so'ng batafsil rejalashtirish loyihasi darajasiga chiqishi kerak.

Istalgan o'lchamdagi va vazifadagi ko'kalamzor hudud aslida ma'lum vazifalar to'plamini bajaradi: rekratsion, sanitar-gigienik, mikroiklimiy, estetik, tabiatni muhofaza qilish, rejaviy-regulyativ, xo'jalik-texnik. Alohida ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar qanchalik ko'p vazifalar majmuini bajarsa, shahar landshaft tizimining umumiy samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Qurilish o'ziga xos geometrik shakllari ko'proq bo'lgan aholi punktlarini qurishda, jamlangan o'simliklar, qat'iy chiziqlarni yumshatuvchi qo'shimcha element vazifasini bajaradi. O'simliklar ayrim qurilgan sektorlar orasida bo'g'in bo'lib xizmat qiladi va tegishli ko'kalamzor tizim bilan tumanlarni o'zaro va atrof muhit bilan bog'laydi. Turar-joy tumani yoki kichik tumanning asosiy o'simliklari atrofdagi tabiiy muhitning o'simlik assosatsiyalarining eng dekorativ jinslardan iborat bo'lishi kerak. Agar unga hudud uchun ma'qul keladigan va asosiy o'simlikka biologik jihatdan to'g'ri keladigan o'ziga xos dekorativ, ekzotik jinslar qo'shilsa, bu bilan aholi turar joylari landshaftining o'ziga xos qiyofasi ta'minlanishi mumkin.

Turar-joy tumanining ko'kalamzorlari tizimiga - uning hududidagi bog' va parklar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarining ko'kalamzor maydonlari, xiyobonlar, bulvarlar kiradi.

Tumanning ko'kalamzorlari odatda hududning topografiya xususiyatlarini hisobga olgan holda yirik massivlar qurilishida loyihalanadi. Ko'kalamzorlarni kundalik foydalanish - turar joylarning hovlilari, bolalar bog'chalari va maktablarning hovlilaridagi ko'kalamzorlar, hamda periodik foydalansh turlariga - parklar, bog'lar, bulvarlarga bo'lish mumkin.

Turar-joy tumani bog'ini jamoat markazi yaqinida tuman sport majmuasiga bog'lab joylashtirish maqsadga muvofiq. Bog' hududini umumiy dam olish, sport, ko'ngilochar, tinch dam olish, bolalar o'yinlari qismlariga bo'lish tavsiya etiladi.

Bulvar va piyodalar xiyobonlari asosiy yo'nalishlar bo'ylab loyihalanadi. Ular o'zaro ko'kalamzor hududlar, bog', xiyobon, maktab, bolalar bog'chalari ko'kalamzor hududlarini birlashtirib, jamoat binolari, jamoat transporti bekatlariga qulay kelish joylari tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir.

Yashash hududiga yashil o'simliklarni shunday joylashtirishda ko'kalamzor hududda havo almashish imkoniyati bo'lishi lozim. Havo aylanishiga to'siq bo'luvchi baland yashil ekinlar bilan o'ralgan o'tloqlar, maysazorlar, hiyobonlar yaratishda teskari natija hosil bo'lishi mumkin, ya'ni ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda harorat yuqori bo'ladi. Turar-joy hududlarini shahar ichki yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va katta ko'chalardan quyuv daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim.

Jismoniy yarbiya va sport inshootlari turar-joy tumani ko'kalamzor tizimini to'ldirishi lozim. Tuman sport inshootlariga sport yadrosi va suzish basseyni, sport maydonlaridan iborat sport majmuasi, sport zalni o'z ichiga oladi. Turar joy tumanining ko'kalamzorlari va sport inshootlari odatda joyning landshaft xususiyatlarini hisobga oluvchi o'zaro bog'liq tizim sifatida loyihalanadi.

Shahar aholisining tabiat bilan bo'lgan aloqasini saqlab qolish.

Aholining ko'payishi va u bilan bog'liq holda shaharlarning ham o'sishi va kengayishi odamlarning tabiat bilan bo'lgan zaruriy aloqasining buzilishiga olib kelmoqda, natijada shahar aholisi yashash sharoitining yomonlashuvi yuz bermoqda. Shu tufayli ko'kalamzorlar, quyosh tushib turuvchi ochiq yerlar va ulardan shahar aholisining har kuni foydalanishi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa turar-joy binolari tarkibiga ko'kalamzorlashtirilgan maydonchalar va boshqa tabiat elementlarini kiritish imkonini beradigan tuzilishlarini izlab topish lozimligini ko'rsatadi. Bunday majmualar odamlarning tabiat bilan yaqinligini ta'minlashi lozimdir.

Maxalla bog'lari ko'kalamzorlashtirish tizimining doimiy va davriy dam olish uchun xizmat ko'rsatadigan asosiy zvenosi hisoblanadi. Turar-joy maxalla bog'lari kamida 2 Ga (sport majmuasidan tashqari) maydonga joylashtiriladi va 1 km radiusdagi aholiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallanadi.

Maxalla hududida shahar parklari joylashsa, turar-joy tumani bog'iga ehtiyoj yo'q. Turar-joy tumani bog'ini jamoat markaziga yaqin qilib, turar-joy tumani sport majmuasi bilan bog'lagan holda, mavjud landshaft xususiyatlarini hisobga olib, ko'proq manzarali, turli rel'ef ko'rsatkichlariga ega joyga joylashtirish maqsadga muvofiq. Turar-joy tumani bog'ida dam olishning turli shakllari joylashtiriladi. Bundan kelib chiqqan holda bog' hududini faol dam olish hududi va tinch dam olish hududiga ajratish lozim.

Xiyobon – 0,15-1.5 Ga maydondagi ko'kalamzorlashtirilgan hudud bo'lib, maydon, ko'chalar kesishmasi yoki mavzening ko'chaga birikadigan hududida joylashtiriladi. Xiyobonni rejalashtirishda yo'laklar, maydonchalar, gazon, gulzorlar, alohida daraxt guruhlari, butalar, haykallar kabi badiiy san'at na'munalari, favvoralar va h.k.lar qo'llanilishi mumkin. Xiyobonlar aholining qisqa muddatli dam olishi va maydonlar, ko'chalar, jamoat binolarini dekorativ bezatish uchun mo'ljallanadi.

Bulvar – ko'kalamzorlashtirishning chiziqli shakli bo'lib, magistrallar, qirg'oq bo'ylari, turar-joy ko'chalari bo'ylab tashkil etiladigan kengligi 16 m dan kam bo'lmagan daraxt va butalarni xiyobon shaklida ekilishidir. Piyodalar harakati va qisqa muddatli dam olishga mo'ljallangan.


Turar-joy maxallasini ko'kalamzorlashtirish sistemasini tashkil etish maxallaning umumiy o'lchamlari va umumiy arxitekturaviy-fazoviy yechimidan kelib chiqadi. Shuningdek, fazoviy muhitning ko'p darajali bo'lishini ta'minlash lozim, buni o'z navbatida, tomosha qiluvchi qabul qilishi uchun eng manzarali yo'nalishlarni aniqlash va bu yo'nalishda o'simliklar va qurilmalarni mutanosiblikda joylashtirish lozim.

Turar-joy maxallasini ko'kalamzorlar tizimiga quyidagilar kiradi

- Turar-joy maxallasini chegaralari bo'ylab, ichki yo'llar bo'ylab, xo'jalik va yordamchi inshootlar atrofida ekiladigan o'simliklar;
- Turar-joy maxallasini bog'i o'simliklari;
- turar-joy guruhlaridagi hududlar, dam olish maydonchalari, bolalar o'yin maydonchalari, piyodalar yo'laklari;
- maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari hududi;
- qurilmalari zich joylashgan hududlarda binolar tomlarida kichik bog'lar tashkil etish bilan to'ldirilishi mumkin.

Turar-joy maxallasini turar-joylar guruhining landshaftini tashkil etish: 21-rasm.

- 1) dastlabki xizmat ko'rsatish punkti;
- 2) 1 qavatli turar-joy binosi;
- 3) 2 qavatli turar-joy binosi;
- 4) suv havzasi; 5) bolalar maydonchasi; 6) kirlarni quritish uchun maydoncha; 7) dam olish maydonchasi; 8) soyabon;
- 9) pergola; 10) stol tennisi;
- 11) avtostoyanka; 12) besedka.:



Turar-joy maxallalarda va yaqinida yirik ko'kalamzorlar maydon bo'lmagan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday bog'lar turar-joy binolariga piyoda yetib borish imkoni bo'ladigan darajada yaqin qilib loyihalanadi (500 m), maydoni esa 2 dan 12 Ga gacha o'zgarishi mumkin. Bog' hududi yoshi kattalar uchun tinch dam olish hududi, bolalar va o'smirlar uchun faol dam olish hududi, xo'jalik hududidan (bog' chegarasiga yaqin joylashtiriladi) tashkil topadi. Turli iqlimiy sharoitlardan kelib chiqib bog' qo'shimcha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, issiq iqlimda havoni namlantiruvchi va sovutish xususiyatiga ega bo'lgan kichikroq suv qurilmalari ko'proq qo'llaniladi. Kuchli shamollar bo'ladigan hududlarda ko'pincha bog'ning kompozitsion yechimi asoslanadigan shamoldan himoya qiluvchi o'simliklar ekiladi.

Yetarli darajada katta yashil massiv sifatida bog' kompozitsion markazi bo'lib, maxallalarga xizmat qilishi ham mumkin. Ko'pchilik bog'larga yopiq kompozitsion yechim xosdir, lekin loyihalash amaliyotida chiziqli turar-joy

maxallasini bog'i ko'payib bormoqda. Unda maktab, bolalar bog'chalari, jamoatchilik muassasalari, shuningdek, sport va o'yin maydonchalari "ilmoq" shaklida birikib ketadi. Chiziqli bog' maxallaning barcha xizmat ko'rsatish muassasalariga piyoda yetib borish imkonini yaratib beradi.

Ko'chalar o'simliklari qatorli ekish shaklida tashkil etiladi, buta, yashil devorlar chiziqlari, o'simliklarni guruhli ekish; muhandislik tarmoqlarini joylashtirish uchun gazon chiziqlari, harakatni tartibga solish uchun yashil orolchalar rejalashtirish mumkin. Ko'chalar ko'ndalang kesimidan kelib chiqqan holda ularning ko'kalamzorlashtirish darajasi (qizil chiziq ichida) chorrahalar orasidagi qismlarda % ko'rsatkichida berilishi mumkin. Shunday qilib, turar-joylar ko'chalarida 52-55%, tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalarda 24-45%, tezyurar qatnovli yo'llarda 50-56%.

Dam olish maydonlari kattalar va bolalar dam olishi uchun mo'ljallanadi. Kichik va o'rta yoshdagi bolalar o'yinlari uchun maydonchalar o'zaro va boshqa qurilmalardan yashil jonli devor bilan ajratilishi lozim.

Xo'jalik hovlilari, garajlar hududi va chiqindilar to'plash joylarini boshqa hududlardan qalin o'simlik qatori bilan ajratish lozim, qurilmalar devorlariga ko'p yillik chirmashuvchi o'simliklar o'tkazish lozim.

Uy oldi chizig'ini ko'kalamzorlashtirish. Janubiy va janubiy-g'arbiy fasadlarda ko'kalamzor chizig'ini kamida 6 m olish, butalar bilan birga past bo'yli daraxlar ham ekish lozim. Shimolga qaragan fasadlarda ko'kalamzor chizig'ini kamida 3 m olish lozim va gazon, gulzorlar, butalar guruhlarini ekilishi mumkin. Janubiy hududlarda yakka va guruhli qilib ekiladigan baland daraxtlarni joylashtirish uchun ko'kalamzor chiziqlar kengligini: agar fasadlar shimoliy va shimoliy-sharqiy yo'nalishda joylashgan bo'lsa – 7-10 m, janubiy va janubiy-g'arbiy yo'nalishda bo'lsa – 12 m gacha olinadi. Bir tipdagi uzun uylar joylashtirilgan holda ko'kalamzorlashtirish usullarini qiziqarliroq qilish uchun binolar fasadiga chirmashuvchi o'simliklar o'tkazish mumkin.

Bulvarlar va piyodalar xiyobonlari piyodalar yo'nalishi bo'ylab shunday loyihalanishi lozimki, ko'kalamzor hududlar, bog', maktab hududlari, bolalar muassasalari o'zaro bog'lanishi lozim, shuningdek, jamoat binolari, transport bekatlari, dam olish joylariga borish qulay bo'lishi kerak.

Haqqulobod shahar hududida zamonaviy mahalla markazining tabiati, ekologik muammolari va uning yechimi.

Bugungi kunda turar-joy maxallalari ayanchli ahvolga tushib qolgan. Yo'llar va jamoat binolarining ta'mir talabligi, uylarning avariyaaviy holdaligi, infratuzilmaning ishlamasligi, ko'kalamzor hududlarning mavjud emasligi va h.k. Maxallada sobiq ittifoq davrida qurilgan ko'p qavatli turar-joy binolari va asosiy ko'chalarning ta'mirtalabliligi va yakka tartibdagi turar-joy binolari bugungi kun shaxarsozlik talablariga javob bermaydi. Uylarning ayanchli ahvoldaligi mahalliy aholiga noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Maxalladagi mavjud bo'lgan bog'cha va maktablar zamonaviy talablarga javob bermaydi. Shuningdek mahalliy aholi uchun madaniy va jismoniy hordiq chiqarish uchun yetarlicha rekreatsion zo'nalar tashkil etilmagan.



22,23-rasmlar

Mavjud holat.

Furqat maxallada loyihalashtirilayotgan hudud 1700 m/kv maydonni egallaydi. Loyihadan asosiy maqsad yahlit kompozitsion yechim taklif etishdir.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida maxalla markazi tashkil etilib, aholi dam olish va ko'ngil ochish maydonchalari loyihalandi.

Maxalla hududi ko'kalamzorlashtiriladi. Buning uchun soya beruvchi va dekorativ daraxtlar mavsumiy gullaydigan butalar, qishin-yozin ma'lum bir ketma-ketlikda gullaydigan anvoi gullar ekish rejalashtirilgan. Maxalla hududida tashkil etilgan alleya transport qatnovidan butunlay ozod etib loyihalangan. Bu esa aholining ushbu shovqindan, changdan, havf-hatardan yiroq bo'lishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari alleya hududida favvorali maydon mavjud bo'lib, u aholiga maroqli hordiq chiqarishga yordam beradi.

Mavze hududida ko'plab sport maydonchalari, kichik bolalar uchun o'yin maydonlari, kattalar dam olishi uchun tinch hududlar tashkil etilgan.

Ushbu loyihada ko'zda tutilgan barcha yechimlar keyinchalik Namangan viloyatida rekonstruksiya qilinayotgan yoki yangidan barpo etilayotgan barcha hududlar uchun etalon vazifasini bajarishi ham mumkin.

Tayanch atamalar.

Aktsent – manzaraning biron joyi yoki detaliga urg'u berish, kishi e'tiborini alohida qaratish maqsadida qullanadigan badiiy me'moriy uslub. Detal yoki muhitga alohida farq qiluvchi holat, shakl, o'lcham yoki rang berish, uni yorug'lantirish va bo'rttirish orqali erishiladi.

Ansambl – yaxlit badiiy estetik shaklda yaratilgan majmua. O'zaro funktsional bog'langan inshootlar, o'simliklar va boshqa land–shaft elementlarining yaxlit bir uyg'unlashtirilgan me'moriy omuxtası.

Anfilada – zallar, xonalar qatori. Parklarda bir o'q bo'ylab joylashgan o'tish joylari bilan bog'langan saroylar, alohida yashil yopiq muhitlar qatori.

Asimmetriya – hajm fazoviy elementlarning simmetrik bo'lmagan holdaga joylashuvi va o'zaro tarkibi.

Assortiment – muayyan joy yoki landshaft ob'ektini ko'klamzorlashtirishda qo'llaniladigan turli hil daraxtlar, butalar va gullar to'plami.

Arxitekturaviy bog' – bog' imoratlari va boshqa sun'iy yaratilgan inshootlar ko'plikni tashkil qilgan va muayyan kompozitsiya asosida yaratilgan bog'lar turi.

Bosket – yashil to'siqlar yoki jonli devorlar bilan ajratilgan geometrik shakldagi berk maydon bo'lib, ichida favvoralar, gulzorlar joylashadi.

Bordyur – bog'lar va parklarda gulzorlar yoki parterlarni chegaralab turuvchi pastqam ingichka yashil hoshiya, jiyak

Garmoniya – me'moriy shakllar yoki landshaft elementlarining o'zaro uyg'unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (xandasaviy shakllar, ranglar, hajmlar garmoniyasi va xokazo).

Klumba – bu doira, uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, romb va boshqa shakldagi turli muntazam geometrik shakldagi gulzorlardir.

Kontrast – shakl yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farq xolat.

Landshaft – yer sathi, tabiiy (o'simliklar, relef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun'iy (me'moriy muhandislik inshootlari) ishlanmalar bilan badiiy va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud.

Landshaft arxitekturasi – atrof muhitni tabiiy va sun'iy me'morchilik qurilmalari va elementlari yordamida badiiy shakllantirish sanati, me'moriy faoliyatning alohida turi, landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.

Landshaft dizayni – turli hil landshaft ob'ektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha, landshaft ob'ektlarining sun'iy elementlarini badiiy estetik va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funktsiyalarga moslab yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi.

Mikroiqlim - bir joyda chegaralangan doirada yuz beruvchi iqlimiy hodisa (shahar, shaharning bir qismi); katta bo'lmagan hudud yoki hududning bir qismi iqlimiy sharoitlari majmuasi.

Miksborder – erta bahordan to kech kuzgacha gullab turuvchi turli o'simliklardan tuzilgan, odatda yo'laklar, devorlar, yashil to'siqlar yoki pog'onalar bo'ylab ekilgan chiroyli va o'ziga xos gulzor.

Nyuans – shakl yoki ranglar orasidagi zo'rg'a seziluvchi farq, holat.

Orientatsiya – loyihalashning alohida elementlarini dunyo tomonlari-ga nisbatan joylashtirish: shimol-janub (ShJ), sharq-g'arb (ShG'); bolalar maydonchalarini loyihalash, yo'laklarda daraxtlarni joylashtirish, sport majmualarini joylashtirish va x.k.larda katta ahamiyatga ega.

Parter – skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoa binolari oldilarini bezovchi manzarali tekis maysazor yoki gulzor maydonlar. Parterda hovuzlar va haykallar ham bo'lishi mumkin. Parterlar guli, maysalik va jimjimador naqshli hillarga ega.

Rabatka – hiyobon, yo'lak bo'ylab ekilgan uzun tasma ko'rinishidagi gulzor, bir yillik o'simliklarning bir yoki bir necha xillaridan ko'p qatorlab ekiladi.

Rekreatsioon hudud - dam olish va sog'liqni tiklash uchun mo'ljallangan shaharda, shahar atrofida maxsus ajratilgan hudud. Bog'lar, ko'ngil ochish bog'-lari, xiyobonlar hamda bog'li yodgorliklardagi bufer zonalar rekreatsioon maqsadlar uchun xizmat qilishi mumkin.

Ritm – bog'-parkchilik san'ati ob'ektlarida turli elementlarning maromiy tarzda takrorlanishi, qaytarilishi.

Sanitar-himoya qismi - sanoat korxonasi, omborlar, kommunal va transport inshootlarini aholi yashaydigan qismdan ajratib turuvchi ko'kalamzor yo'lak.

Yashil devorlar – daraxtlardan yoki balandligi 2,5–4 m, eni 1–1,3 m baland butalardan zich qilib ekilgan joylar.

Shahar landshafti - shahar hududidagi tabiiy (relef, o'simliklar, suv xavzasi) va antropogen (injenerlik inshootlari, binolar, yo'llar) omil-larning hosilasi.

Tumanni ko'kalamzorlashtirish sxemasi – bu shahar bosh rejasi asosida landshaft arxitekturasini ob'ektlari joylashishining printsiplari va xarakterini ularning bajaradigan vazifasiga bog'liq ravishda aks ettiruvchi chizmadir.

Shaharni obodonlashtirish - shaharda sog'lom va qulay qayot sharoiti yaratishga qaratilgan tadbirlar majmuasi.

Qurilish chizig'i - qurilayotgan hududning chegarasini belgilaydi. Ba'zan yuqorida keltirilgan chiziqlar mos tushishi mumkin, ammo odatda qurilish chizig'i kichik tuman va kvartallar ichiga (qizil chiziqdan kamida) 3 - 6 m ichkariga joylashtiriladi.

Simmetriya – shakl yoki predmetlarning markaziy o'q chiziqqa, shuningdek tekislikka nisbatan aynan, muqobil joylashuvi, o'zaro o'xshashlik. Simmetriyaning teskarisi asimmetriyadir.

Skver – shahar ichida uncha katta bo'lmagan (to 1 gektargacha) qisqa vaqtli dam olish va ayrim me'moriy komplekslarni bezash uchun mo'ljallangan ko'kalamzor hudud.

Xududni muxandislik tashkil etish va transport

BO'LIMI

Konsultant: O.Sottiboev

Rahbar: N.G'ofurov

Diplomant: D.Mirzakamalova

**Haqqulobod shahar hududida zamonaviy mahalla markazi
muhandislik tashkil etish va transport bo'limi.**

Reja:

1. Muhandislik tarmoqlari haqida umumiy ma'lumot.
2. Havoni konditsiyalashni ahamiyati.
3. Insonning comfort holatidagi ta'sir etuvchi fazoviy muhit parametrlari.
4. Loyihada qo'llangan transport yo'llarining o'lchamlari.
5. Ko'cha va yo'llar toifalari.
6. Ochiq va yopiq turargohlar haqida umumiy ma'lumot.

Muhandislik tarmoqlari haqida umumiy ma'lumot.

Shaharlarda muhandislik tarmoqlari – muhandislik kommunikatsiyalaridan, ularga xizmat qiluvchi inshootlardan va turli yordamchi qurilmalardan iborat murakkab tizimni tashkil qiladi. Muhandislik tarmoqlari yer osti va yer usti turlariga bo'linadi (o'z navbatida yer usti tarmoqlarini ikki xilga bo'lish mumkin: bevosita yer ustida joylashgan va yerdan ko'tarilgan holatda. Ba'zi hollarda yer ustida tarmoqlar joylashtiriladi. Biroq bu loyiha turar joylarda memoriy kompozitsiyani buzadi).

Shahar yer osti tarmoqlari shaharni muhandislik obodonlashtirishning asosiy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shahar yer osti tarmoqlari shahar aholisini madaniy-maishiy muassasalarni, sanoat korxonalarining talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

Muhandislik obodonlashtirish shaharsozlik ishlarining katta qismini tashkil qiladi. Massivning bosh rejasini loyihalashda massiv hududini muhandislik tayyorlash va obodonlashtirish bo'yicha juda ko'p va o'ta muhim masalalar ko'ndalang bo'ladi, bular: vertikal rejalash va suvni qochirish; jarliqlar, ko'chkilli, suv bosadigan va botqoqli joylarni o'zlashtirish va obodonlashtirish, quruq-issiq mintaqalarda joylashgan shahar hududini suv bilan ta'minlash va sug'orish, zilzilaviy va doimiy muzliklar bilan qoplangan rayonlarni shahar qurilishi uchun o'zlashtirish; transport va piyodalar yo'llarni, avtomobil to'xtash joylari va xo'jalik maydonlarini joylashtirish; ko'kalamzorlar, dekorativ va sport ahamiyatiga ega kichik suv inshootlarini barpo etish; sport inshootlarini va kichik memoriy shakllarini qurish; ko'chalar, maydonlar va shaharning boshqa joylarini sunniy yoritish; yer osti kommunikatsiya tarmog'i va suv ta'minoti, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti tizimining shahar rivojlanishi istiqbolini ko'zda tutgan holda uzluksiz ravishdagi faoliyati tushuniladi.

Suv ta'minoti tizimiga suvni manbadan oluvchi inshootlardan tortib, uni tozalash, zaxirada saqlash va iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan barcha inshootlar majmuasi kiradi. Suv ta'minoti tizimi bir qancha ko'rsatkichlar bilan turlanadi. Loyihalanayotgan hudud turar joy hududi bo'lgani uchun u yerda, o'quv muassasalari, kichik maishiy xizmat ko'rsatish binolari, jamoat binolari, undan tashqari rekriatsion hudud ham birikib ketganligi sababli madaniy-ko'ngil ochar memoriy obyektlar qatorida kichik art obyektlar ham mavjuddir.

Havoni konditsiyalashni ahamiyati.

Insonlarning sog'lig'i, ishga layoqatliliigi va umuman uning umumiy o'zini his qilishi, uning asosiy vaqtini o'tkazadigan turar joy va jamoat binolaridagi ichki mikroiklimga bog'liqdir. Binolarning zamonaviy isitish-ventilyatsiya tizimlari, yoritish texnikalari va turli xildagi elektr jihozlar bilan ta'minlanishi: "Uy – bu yashash uchun mashina" ta'rifini eslatadi. Agar insonning fiziologik holatiga atrofdagi havoni ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak, unda inson kuniga 3 kg oziq-ovqat va 15 kg havo bilan oziqlanadi. Qanday havoligi, uning tozaligi, yangiligi, sovuq yoki issiq havoligi, ko'p hollarda fazoviy qulaylik yaratishning muhandislik tizimiga bog'liqdir. Bunday tizimlar orasida alohida: ventilyatsiya tizimini; isitish tizimini (isitish-ventilyatsiya tizimini) yoki konditsiyalash tizimini e'tirof etishimiz mumkin. Fazoviy isitish bilan ventilyatsiya xona uchun ma'qul keladigan mikroiklim yaratishi mumkin. Havoni konditsiyalash tizimi yuqoridagi tizimlardan avzaltroqdir. Chunki, ventilyatsiya va isitish tizimini bajaribgina qolmay, xona uchun yoz mavsumida optimal mikroiklimni yarata oladi. Havoni konditsiyalash tizimida havoni nafaqat sovutish, isitish balki quritish, tozalash (filtrlash, ionlashtirish) ham mumkindir. Undan tashqari tizim belgilangan havo haroratini mo'tadil saqlab turishi mumkin. Unga tashqi havo va ichki o'zgaruvchan namlik va

issiqlik to'sqinlik bo'lmaydi. Shuni ham ta'kidlash keraki, kondisiyalash o'zining maqsadiga ko'ra □ oppish (qulay) va texnologik turlarga bo'linadi:

1- Komfort havoni kondisiyalash tizimi muqobil xona haroratini saqlash, tozalash, namlik va xonada havo harakatini avtomatlashtirishga qaratilgandir;

2- Texnologik havoni kondisiyalash tizimi esa, maksimal darajada ishlab chiqarish va texnologik talablarga javob berishidir;

Insonni issiqlikni his qilishiga asosan to'rta omil asos bo'ladi:

- 1- Harorat;
- 2- Havo namligi;
- 3- Havoning xonada harakatlanish tezligi;
- 4- Xonani to'suvchi devorlarning yuzaiga bog'liq.

U yoki bu havoni kondisiyalash tizimini reglamentlashda harorat, havoning namligi va harakatini ruhsat etilgan o'zgarish chegarasini bilish kifoya hisoblanadi. Agar inson o'z tanasi oldida na sovuq havoni, na issiq havoni, havo harakatlanish tezligini his qilmasa comfort holatda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u o'zini qulay hisoblaydi. Qachonki uni tanasidan ishlab chiqargan issiqliknigina tashqariga chiqazadi. Kondisiyalashning asosiy vazifasi shunday havo haroratini bir xil darajada saqlab turish keraki, unda har bir inson organizmi o'zini issiq his qilsin. Gigienik jihatdan eng yaxshi havo harorati turar joylarda 22°C ni tashkil etadi, ruhsat etilgan o'zgarish chegarasi 21 dan 23°C ni tashkil etadi. Pastroq harorat esa 18°C ni tashkil etadi. Bunda, «oppis»e hujjatlarga ko'ra isitish tizimini loyihalashda tavsiya etiladi. "salqin" va "sovuq" deya ta'riflanadi.

Insonning issiqlik balansi.

Mashhur tadqiqotchi Ole Fangerom tomonidan inson tanasi va atrof muhit orasidagi issiqlik balansi formulasi taklif etilgan . Bu formulaning asosi sifatida , tinch holatda turgan insoni tashqi muhit bilan o'zaro issiqlik almashinishi hisoblanadi. Bunda harorat ahamiyatsizdir. Bunday sharoitda ishlab chiqarilgan issiqlik miqdori , atrofga tarqalgan issiqlik miqdoriga tengligidir :

$$M = W + Q_d + Q_k,$$

Bunda:

M- Organizm ishlab chiqargan issiqlik miqdori, Vt/kv.m;

W- Mehanik ishning ishlab chiqarish hajmi,Vt/kv.m;

Q_d - nafas olishda ishlab chiqarilgan umumiy issiqlik,Vt/kv.m;

Q_k – Teridan chiqqan umumiy issiqlik miqdori ,Vt/kv.m.

Inson tanasidan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori bir nechta omillarga bog'liq . Ulardan asosiylari:

- Tana va atrof muhit haroratlari orasidagi tafout;
- Atrof muhit ta'sirida tanadan issiqlikni chiqishi yoki aksincha;
- Teri bug'lanishi;
- Nafas olishda aniq va yashirin ko'rinishdagi issiqlikni yo'qotilishi.

Inson tominidan ishlab chiqarilayotgan issiqlik atrof muhitga bir nechta omillar orqali chiqiladi:teri tanasi,konveksiyalar,bug'lanish ,shuningdek nafas olish orqali amalga oshiriladi.Organizm holatiga ko'ra,(uyqu, orom, aqliy ish, turli intensive jismoniy mehnat) va atrofdagi fazoviy muhit ta'siriga asosan har bir inson soat mobaynida 330-105 kDj issiqlik, 40-415g namlik va 18-36 l gaz ajratib chiqaradi.

SANITAR-GIGIENIK TALABLAR.

Xizmat ko'rsatuvchi xonalarning meteosharoitini va mikro iqlimini sanitar-gigienik talablar reglamentlaydi:

1-Havo harorati;

2-Havoning nisbiy namligi;

Xonada havoning harakat tezligi.Xonada meteosharoitdan tashqari yana quyidagilar reglamentlaydi:1- havoning tezligi;2-xonadagi shovqun darajasi bezota qilmaydigan bo'lishi kerak;3- bir kishi uchun havoning sarfi SHNK asosida belgilanadi.

Insonning oz'ini xonada yaxshi his qilishi uchun obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq holdabo'ladi. Ulardan asosiysi issiqlik va namlikning o'zaro almashinish sharoitidir.Bu sharoit har bir insonning o'z organizmiga bog'liq. Salomatlik holati asab tizimiga bajarayotgan ish kategoriyasiga,ish formasi,matoning turi va sifati ,atrofdagi havoning harorati ,bosimi va atrofdagi havoning harakatlanish tezligi ham bog'liqdir.Inson tanasi issiqlik chiqaruvchi yoki yutuvchi yuza orasidagi masofaga, uning o'lchami va haroratiga bog'liq.Inson o'zini yaxshi his qilishi uchun toza havo bilan nafas olishi muhim ahamiyatga egadir. Xonalarda kondiseonerlashda hisobiy parametrlarni optimal me'yor chegarasida ta'minlash kerak :

- Hizmat ko'rsatuvchi zonada zonada jamoat,ma'muriy ,maishiy imoratlardan iboratdir; 3 SHNK 2.04.05-91*. Doimiy yoki mavsumiy ish o'rinlari uchun ilova 2 SniP 2.04.05-91*.


Meteosharoit optimal sharoit chegarasida yoki unga kiruvchi parametrlardan birini qabul qilish kerak.Agar bu iqtisidiy asoslab berilgan bo'lsa.

Transport tarmoqlari haqida umumiy ma'lumot.

Shaharsozlikda transport tizimi alohida o'rin tutadi. Transport tizimi shahar aholisining aktiv hayotini ta'minlaydi va uning samaradorligini oshiradi. Aks holda transport tizimisiz ayniqsa hozirgi kunda shahar hayotini tasavvur etib bo'lmaydi. Transport va piyodalar harakatini loyihalash va uni tashkil etish shaharning me'yoriy – loyihaviy yechimida asosiy muammolaridan biridir.


Shaharning loyihaviy tarkibida ko'cha – yo'l tarmog'ini oqilona yechimini toppish muhim masaladir. Ko'cha tarmog'ining umumiy boshtarx konsepsiyasiga bo'y so'ndirilgan .

Mavze loyihasida quyidagi o'lchamdagi yo'llar qirqimlari ishlatilgan:




24-rasm

Mahalliy ichki ko'cha.




25-rasm

Mahalliy ichki ko'cha.



26-rasm

Mavze miqyosidagi ko'cha.



27-rasm

Tuman miqyosidagi ko'cha.

Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalarning kengligi turar joylarning joylashishiga qarab, qizil chiziq va trotuar oralig'ida yashil polosaning bor yoki yo'qligidan kelib chiqqan holda 29-41 m ni tashkil qiladi. Bu o'lcham yashil polosalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Men loyihalashtirayotgan mavze loyihasi Orzu massivida katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'chalarning kesishgan joyida joylashgan. Shimol tomondan Namangan-To'raqo'rg'on-Toshkent aylanma yo'li, G'arbdan-ichki yo'l, Janubiydan-Namangan- Toshkent avtomobil yo'li, Sharqdan- Irvadon soy bilan chegaralanadi. Himoya hududida ya'ni ko'cha va turar joylar

orasidagi masofa oralig'ida yashil ko'kalamzorlashtirish hududi joylashtirilgan. Bunda avtoulavlardan chiqadigan har xil zararli gazlardan va shovvqundan himoya qilish asosiy maqsaddir. Asosan archa va sosna daraxtlarini ekishni loyihalashtirdim, chunki, ma'lumki archa va sosna karbonat angidritni yutib kislorod etkazib berish miqdori boshqa daraxtlarga nisbatan yuqori. Bu esa o'z navbatida kichik tuman loyihasida mikroiklimni yaratishga xizmat qiladi.

Mahalliy ichki ko'chalar ham avtoulavlarning o'zidan chiqaradigan vibratsiyasiga chidamli. Umumiy eni 6 va 3.5 metrni tashkil etadi. Yo'llar avtoulavlarning erkin harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydi. Lekin, bunda kesib o'tuvchi (skvoznoy) yo'llarga yo'l qo'yilmagan.

Mavzening ichki ko'cha va yo'llar - binolar guruhiga yoki alohidagi bino va inshootlarga, madaniy- maishiy ob'ektlarga, do'kon, maktab, bog'chalarga, xo'jalik maydonlariga, yong'inga qarshi gidrantlar va boshqa xo'jalik va xavfsizlik xizmatlari obyektlariga xizmat qiladi.

Ko'chalar shaharlarning dastlabki shakllana boshlagan paytlardan boshlab shakllanadi. Shaharda transport tizimini tashkillashtirish shahardagi aholi zichligi har 1000 kishiga to'g'ri keladigan avtomobillar soniga, tarixan shaharning shakllanishida ko'cha-yo'l tarmog'ining qaysi sxema asosida shakllanganligiga bog'liqdir. Zamonaviy shaharsozlikda transport tizimini maqbul yechimini yaratish shaharni shakllantirishda asosiy rol hisoblanadi.

Transport tizimi quyidagilardan iboratdir:

- ko'cha-yo'l tarmog'i;
- jamoat transport tarmog'i;
- tashqi va shahar oldi transporti;
- transport infrastrukturasini.

Ko'cha – bu aholi turar joylarining bir qismi bo'lib, shahardagi barcha harakatini uzatishga ,oqava suvlarini oqizishni tashkil etish ,yer osti tarmoqlarni o'tkazish ,ko'kalamzorlashtirish va yer osti qurilmalarini o'rnatishga mo'ljallanadi.

Bundan tashqari ko'chalar – bu shahardagi bin ova inshootlar ansambliga estetik , ekologik ruh bag'ishlovchi ochiq fazoviy muhitdir. Ko'chalarning eni bosh rejada belgilanuvchi “Qizil chiziq” lar bilan belgilanadi.

Qizil chiziqlar qarama-qarshi joylashgan mikrorayonlarni ,sanoat rayonlarini,bog'larni,hiyobonlarni,sport majmualari ,turar joylar va boshqa inshootlarni ko'cha hududidan ajratib turadi.

Qizil chiziq chegarasida ko'cha tarafga o'tuvchi bino va inshootlar yoki ularning biror qismini ko'rish qat'yan ta'kidlanadi.

Ko'cha elementlari:

1-qatnov qismi ; 2-ajratuvchi polosa; 3-ajratuvchi yashil chiziq; 4-ariq; 5-piyodalar yo'lkasi; 6- tashqari yoritish tarmoqlari.

Ko'chaning qatnov qismi bir yoki bir nechta lentadan iborat bo'lib , lentaning kengligi ko'cha kategoriyasidan kelib chiqqan holda 3-3.75 m ni tashkil etadi.

Ko'cha va yo'llar toifalari:

Barcha turdagi shahar transportining jadalligi va tezligining ortishi bilan shaharlarda transport tarmog'i uchun yangicha talablar qo'yiladi. Katta bo'lmagan kvartallardan iborat shaharlarimizda deyarli bir xil shaklda o'tkazilgan ko'cha-yo'l tarmoqlari bugungi kun transport talablariga javob bera olmaydi.

Ko'cha va yo'l tarmoqlarini toifalashtirish transport oqimini jadal ravishda o'tkazish imkonini beradi.

Turar joy ko'chalari:

Mikrorayon va turarjoy dahalarining shahar magistrallari bilan bog'lashda transport va piyodalar uchun xizmat qiladi.

Turar joy ko'chalarida harakat hajmi 100-200 avto/soatga teng. Odatda bunday ko'chalarda jamoat transporti harakati yo'lga qo'yilmaydi.

Turar joy ko'chalarida qatnov qismining o'qlariga nisbatan egrilik radiusi 125 m bo'lib, eng katta bo'ylama qiyalik 8% (tog'li hududlarda 10%) ni tashkil etadi. Bunday ko'chalarda hisobiy tezlik 60 km/s ni tashkil etadi. Turar joy ko'chalariga alohidagi yoki turar joy binolari guruhlariga olib boruvchi ichki yo'laklar bevosita qo'shiladi.

Ichki yo'laklar:

Ichki yo'laklar mikrorayonlar ichida loyihalanib, alohidagi yoki binolar guruhiga xizmat qiladi. Odatda ular tuman miqyosidagi magistral ko'chaga yoki turar-joy ko'chlariga borib ulanadi. Sanoat tumanlarida esa ular orqali alohida obyektlarga boriladi.

Ichki yo'laklarida qatnov qismining o'qlariga nisbatan egrilik radiusi 30 m bo'lib, eng katta bo'ylama qiyalik 8% (tog'li hududlarda 10%) ni tashkil etadi. Bunday ko'chalarda hisobiy tezlik 30 km/s dan oshmasligi lozim.

Piyodalar yo'llari:

Piyodalar yo'llari mikrorayonlarda, turar joy tumanlarida, jamoat va savdo markazlarida, istirohat bog'larida, o'rmon tipidagi istirohat bog'larida dam olish maskanlarida, ko'rgazmalarda sport majmualarida va boshqa piyodalar to'planadigan joylarda loyihalanadi.

So'ngi yillarda, shaharsozlikda piyodalar yo'llarini transport yo'llaridan imkoni boricha himoyalashga harakat qilinmoqdadir.

Men o'z bitiruv loyihamda piyoda yo'llarini, piyoda yo'laklari kabi qatnov qismi bo'ylab emas, balki erkin ravishda, madaniy-maishiy markazlarga, jamoat transporti bekatlariga, mahsus alleyalariga, piyodalar uchun ajratilgan ko'chalarga chiqadigan qilib loyihalashni taklif etdim. Piyodalar yo'llari va yo'laklari uchun maksimal bo'ylama qiyalik 8% ni tashkil etadi.

Quyida turli toifadagi ko'cha, yo'l va ichki qatnov qismlarining kengligi keltirilgan.

№	Ko'cha-yo'l toifalari	Bitta polosa kengligi, m.	Ikkala yo'nalishda harakat polosalari soni	
			Kamida	Istiqboldagi harakat hajmini hisobga olgan holda
	Tezkor yo'llar	3,75	6	8
2	Shahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar: - uzluksiz harakatdagi; - harakati boshqariladigan.	3,75	6	8
		3,75	4	6
3	Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar	3,75	4	6
	Yuk transporti harakati uchun yo'llar	3,75	2	4
4	Mahalliy ahamiyatdagi ko'cha va yo'llar: - Turar joy ko'chalari; - sanoat zonasidagi yo'llar;	3	2	4
		3,75	2	4
	Poselka yo'llar	3,5	2	2

Mikrorayonlarda transportlarning ichki qatnovi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, turar-joylari bo'lan joylarda avtoullovlar ham bo'ladi, ularni qatnovi, turishi uchun sharoit kerak bo'ladi. Loyihamda shularni hisobga olgan holda , avtoturargohlarni turarjoy binolarini yoniga qavatli qilib loyihalashni taklif etdim. Bu tipdagi turargohlar, hozirgi zamon talabi desa ham bo'ladi. Chunki, aholi soni o'sishi hisobiga ulovlar soni ham o'smoqda. Joylarni tejash, joydan unumli foydalanish maqsadida ham hozirda bu usul keng qo'llanilmoqda, Albatta, o'ziga yarasha kamchiligi ham bor. Agar barcha texnik talablar bajarilsa, bu kamchiliklar yutuqqa aylanadi. Har bir turar joy binosi tagidagi avtoturargoh 2-qavatdan iboratdir. Tabiiy yoritilmaydigan avtoturargohni yoritish maqsadida binolarning tom qismiga quyosh batareyalari o'rnatilgan. Ular quyosh nurlari yig'ib, yer to'la qismidagi chiroqlarni yoritib turadi, Undan tashqari qolgan, ya'ni yig'ilgan energiyani binolardagi podyezdlarni yoritishga sarflanadi.


Avtoullovlarning joylashish sxemasi:

1-Ochiq avtoturargoh; 2- ochiq avtoturargoh; 3- binodan tashqarida joylashgan avtoturargoh; 4-binoning yer to'la qismida joylashgan avtoturargoh .



26,27-rasmlar


Ochiq va yopiq turargohlardan lavha.



28,29-rasmlar

Avtoulavlarning pana yoki ochiq havoda joylashtirilishi ham hisobga olinishi kerak. Kichik tuman loyihasining umumiy maydoniga nisbatan eng optimal masal yechimini tanlashga harakat qildim.

Quyida avtoturargohlarni loyihalashda qo'llaniladigan va qurilish boshqarmalari tomonidan tavsiya etiladigan o'lchamlar ko'rsatilgandir:





30-rasm

Agar ikki qavatli avtoturargohlarda panduslarni joylashtirish qiyin bo'lsa, pastki qavatni chuqurlashtirish va yuqori qavatni yarim qavat balandligida qisqarishi hisobiga joylashtirish mumkin.



Yuqoridagi chizmada turar joy binolari tagidagi avtoturargohlarda, panduslar tizimi o'lchamlari va sxemasi aks ettirilgandir .



32-34-rasmlar

Avtoturargohlar qanday va qayerda joylashishidan qat'iy nazar binoning ichidami yoki tashqarida ularni erkin harakatlanishga imkon yaratilgan bo'lishi kerakdir. Nafaqat, turar joylarda yashovchi fuqarolar erkin qatnashi, balki, yong'in, tibbiy yordam yoki har qanday favqulotda vaziyatlarda avtoulovlarni harakatlanishiga imkon yaratilgan bo'lishi kerak.

O'z boshimchalik bilan yo'llarni to'sishga qat'iyan man etiladi.


Ayrim hollardagina to'sish mumkin, agarda mashinalarning kirish-chiqish yo'llari nazorat etilsagina bugun ruhsat etiladi.

Bunda begona mashinalarni avtoturargohlarga kirishidan saqlaydi. Bu bilan ma'lum bir tartibga erishiladi.



35,36-rasmlar

Ruhsat etilmaydigan vaziyat.



37-rasm.

To'g'ri rejalashtirilgan avtoturargoh.

Hayot faoliyati va mexnat xavfsizligi BO‘LIMI

Konsultant:	O.Sottiboev
Rahbar:	N.G'ofurov
Diplomant:	D.Mirzakamalova

Haqqulobod shahridagi Furqat maxalla markazini loyihasiga xavfsizlik choralarini ishlab chiqish.

Reja:

1. Zamonaviy qurilishda mehnat havfsizligining o'rni va ahamiyati.
2. Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigienasi.
3. Qurilish jarayonlarida mehnat havfsizligi.
4. Yong'in havfsizligi.

Zamonaviy qurilishda mehnat havfsizligining o'рни va ahamiyati.

Mehnat havfsizligining zamonaviy qurilishdagi vazifasi ishchi va hizmatchilarning yashashi va mehnat jarayonida sog'liqni saqlash, ya'ni kasbiy kasalliklar, tasodifiy jarohatlanish kabi baxtsiz hodisalarni oldini olishdan hamda, tabiiy texnogen texnika va harakat havfsizligi sabablariga ko'ra ishchilarning sog'lig'ini, mehnat qobiliyatlarini saqlash, shikastlanish, nurlanish, avariya, yong'in va boshqa kasb kasalliklarini oldini olish va bu sohadagi qonunchilik hamda mehnat muhofazasiga bag'ishlangan boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Mehnat havfsizligi hizmatining asosiy vazifalari qurilish maydonlarida va uning bilan bo'liq bo'lgan ish jarayonlarida sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma'muriyatini ishchi va xizmatchilarga ish sharoitini yaxshilab berish, ustidan nazorat qilib turishi, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish asosida mehnat havfsizligi va himoya vositalarini mutassil takomillashtirish, qurilishda mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik, hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqarish, ularni joriy qilish va hokozolardan iboratdir.

Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigienasi.

Shahar qurilishining asosiy vazifalaridan biri – aholi yashash uchun qulay sanitariya-gigienik sharoitlarni ta'minlashdir.

Bu vazifa juda ko'plab yo'llar bilan, jumladan, shaharlarning sanitariya obodonchiligi va tuproq, suv, havo basseymlarining tozaligi, shuningdek shahar hududining tozaligini saqlash yo'llari bilan hal qilinadi. Shaharlarni sanitariya obodonchiligida shahar hududlarini tozalash va yig'ishtirish jiddiy ahamiyatga egadir. Toshkent shahri uchun mo'ljallangan turar joy tumanlarni

QMQ va SHNQ da ko'rsatilgan me'yorlardan chiqmagan holda. Bituruv loyihamning mavzusi "Sergeli tumanida yangi taklif etilayotgan o'ninchi mavze loyihasi" bo'lib, unda jamoat binolari, turar joy binolari, maishiy xizmat ko'rsatish binolari va rekriatsiya zo'nalarga bo'ldim.

Bosh tarx bo'yicha loyihalananayotgan turar-joydagi o'rta qavatli turar-joy binolari shamol yo'nalishi va quyosh nurining yo'nalishiga qarab loyihalandi. Bunda turar joy binosining shamolatish va quyosh nurining 1 sutkada kamida 3 soat davomida tushib turishi lizim.

QMQ 2.01.03 – 96 ga asoslanib 100 yilda 1 marta 8 ball ga teng yer silkinishlari kuzatiladi. Yerning muzash qatlami 0.6 m ga teng.

Qurilish jarayonida barcha sanitariya - gigiena talablariga javob beradigan qilib loyihaladim. Qurilish paytida quruvchilar dam olish zonalari, bino sanuzellar, tez alangalanuvchi qurilish ashyolarini alohida omborlarda saqlanishi. Qurilish mavsumiga mos ravishda maxsus ish kiyimlarini tavsiya etdim. Vaqtinchalik suv, kanalizatsiya quvurlari, elektr bilan ta'minladim. Qurilish mavsumiga qarab ikki yoki uch smenada ishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Undan tashqari tez tibbiy yordam ko'rsatish punktini ham hisobga oldim. Qurilish zo'nasidan chiqishda yirik avtoulavlarni g'ildiraklarini mahsus ishlov beribgina, qurilish zo'nasidan chiqarishni ham loyihamda taklif etdim.

Haqqulobod shahridagi Furqat maxalla markazini loyihasiga mehnat xavfsizligi yuzasidan mehnat sanitariya va gigienasi ta'minlanishi uchun quyidagi tadbirlar bajarilgan:

Mehnat gigienasi – u ish jaroyaniga atrof muhitni ishlayotganlar organizimga ta'sirini o'rganadi va undan sanitar-gigienik hamda davolash-profilaktika choralar ko'rish maqsadida foydalaniladi. Bu ishlar ish joylarida

sharoitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Bu esa ishlab chiqarish jamoalarining ish qobiliyatini sog'lom va yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Qurilishda ishchilarning mehnat faoliyatini yaxshilash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi va har bir ishchi tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi kerak. Ular changli ishlarni bajarayotgan vaqtida og'iz va burunlariga resperatorlar, ko'zlarni zararlanishini oldini olish maqsadida himoya ko'z oynaklari taqishlari, qo'llariga esa maxsus himoya qo'lqoplarni kiyishlari kerak.

Loyihalashtirilayotgan hududimda shamol shimoliy sharq va janubiy sharq tomondan esadi. Loyihada yashash uchun qulay sharoit va shahar talablariga mos g'oya yaratishga harakat qildim. Rekratsiya zonasining turar joy hududiga qo'shib ketishi, manzarali daraxtlar ekilgan uzun aleya va ularga ulangan favvorali maydonlar loyihasini taklif ettim. Binolar ochiq terassalarga ega, ular gidroizolyatsiyalangan bo'lib, ekalogiyaga foyda keltirish maqsadida tabiiy o'simliklar ekish orqali havoni yanada tozalashga va ochiq havoda dam olishga xizmat qiladi. Bu ham bolalarni salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Men loyihashtiriyotgan kichik tuman loyihasida, chorahaga shaharsozlik aksenti sifatida, shaharda baland qavatli binolar soni kam, shuning uchun balandligi 12-qavat bo'lgan binoni asos qilib oldim. Qolgan turar joy binolarining umumiy nisbatdagi balandligi 5,7,9,12 qavatni tashkil etadi. Umumiy binolar tashqi silueti va kompleks jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'lanib, mavze yonidagi bog' hudud ham turar joy binolari kompleksiga mutanosib bo'lib, tugal ko'rinishni oladi.

Ko'cha yuzalarida joylashgan turar joy binolarining birinchi va ikkinchi qavatlariga maishiy xizmat ko'rsatish punktlari rejalashtirilgan. Loyihada turar joy binolarining tom qismida " Quyosh batareyalari " va " Yashil tom" tizimlarini qo'lladim. Bu tizimlar nafaqat , binolarda balki hovlilarda ham kichik art obyekt ko'rinishida qo'llanilishi mumkin. Eksploatasiya davri uchun barcha

sanitariya muammolarini hal qildim. Ya'ni chiqindi tashlash joylari, avtoulavlarni doimiy yoki vaqtinchalik turishlari uchun avtoturargohlar. Doimiy avtoturargohlar turar joy binolarining yer to'la qismida joylashtirdim. Sprinkler tizimini, konditsiya tizimini, ventilyatsiya tizimi masalalarini yechdim. Avtoturargohda zaharli gazlarni atmosferaga filtratsiya orqali chiqazish choralari ham hisobga olingandir.

Qurilish jarayonida mehnat xavfsizligi.

Qurilish maydonida ish boshlashdan 3 oy oldin buyurtmachi tomonidan bosh pudrat tashkilotiga barcha qurilish loyihalari to'liq ishlangan holda taqdim etilgan. Bu loyihalar tarkibidagi ularning ajralmas qismi hisoblanuvchi qurilishni tashkil etish loyihalari bo'lmog'i shart va ularda havfsizlikni ta'minlash masalalarini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan holda to'liq aks ettirilgandir.

Mehnatni muhofaza etishda zarur bo'lgan chora tadbirlar loyihalash davrida ikki bosqichda hal etilgan.

Birinchi bosqich - loyihalash davrida qurilishni tashkil (QMQ) loyihasini tuzish, ya'ni qurilishdagi yalpi ishlar ketma-ketligini va umumiy havfsizlikni ta'minlovchi tadbirlardan iboratdir;

Ikkinchi bosqich - qurilish chog'ida surinkali davom etadigan ishlarni bajarish jarayonida havfsizlikni ta'minlaydigan ishni bajarish loyihasini tuzishdan iboratdir.

Mehnat havfsizligi dastlab loyihani tuzuvchi tashkilot tomonidan qurilishni tashkil etish loyihasida, bosh pudratchi tashkilot tomonidan esa ishni tashkil qilish loyihasida aks ettiriladi. Bu loyihalarda ko'riladigan jami masalalar uchta, ya'ni umummaydon xavfsizligi, tartibod jarayonidagi xavfsizlik va mahsus masalalardir. Umummaydon masalalari qurilish va bosh rejasida ko'rib, maydonni tanlash va mashina mexanizmlar uchun kirish va chiqish yo'llarini belgilash, ishchilarni belgilash, ishchilar va rahbar muhandislar uchun

zarur bo'lgan barcha yordamchi inshootlarni, ya'ni yechinib-kiyinish, ovqatlanish va yuvinish xonalari, sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda joylashtiriladi. Vaqtinchalik foydalanish uchun elektr tarmog'i, issiq va sovuq suv , hamda oqava suv uzatgich tarmoqlari, aloqa va radio tarmoqlari kabi inshootlarni aniq hisoblar asosida to'g'ri joylashtirishni o'z ichiga oladi.



Qurilish jarayonida ifodalanovchi ikkinchi masala tartibot va mehnat jarayoni haritalarida o'z yechimini topadi, unda ishchining salomatligini himoya qilish borasida aniq hisoblarga asoslangan va mahalliy ish sharoitlarini inobatga olgan muhandislik mulohazalari o'zini yagona aniq yechimini topgan bo'lishi lozim.

Uchinchi mahsus masalalar turkumini hal etishdan iborat bo'lib, mahalliy yer, iqlim va ekologik shart sharoitlaridan kelib chiqqan holda, quruvchi va atrof muhit uchun hatarsiz bo'lgan manbalardan foydalanib, havf-hatar manbalarini esa bartaraf qilinishiga qaratilgan. Ya'ni qurilish maydonidagi barcha kommunikatsiya ,injenerlik jihozlarini mahalliy hokimiyat bilan kelishgan holda ko'chirish yoki vaqtinchalik to'xtatilish nazarda tutilgan.

Ishlarni rejali va havf – hatarsiz olib borilishi, bosh tarxdagi xavfsizlik tartiblari, mahalliy tadbirlarni qay darajada hal qilinganligiga va iqlim sharoitlari qanchalik to'liq hisobga olinganligiga bevosita bog'liqdir. Qurilish bosh tarxida mehnat muhofazasining texnikaviy va tashkiliy majmuasi hal qilinadi.

Yong'in xavfsizligi.

Yong'inidan asosiy himoya bu loyihani va loyihada qo'llanilgan qurilish ashyolarini to'g'ri tanlanganligidan iboratdir. Xonadonlardagi xonalarda yong'in havfsizligi choralarini ishlab chiqdim. Asosiy o't o'chirish quroli suv bo'lganligi uchun, o't o'chirish bo'limlarini joylashish radiusi ham hisobga oldim. Turar-joy va turar-joy bo'lmagan binolar yong'in gidrantlari loyihada joylashishini ko'rsatdib o'tdim.



38,39-rasmlar.

SPRINKLER tizimining umumiy ko'rinishi.

Yong'inni tez bartaraf etish uchun sprinklerli avtomatik tizimni taklif etdim. Standart sprinkler eruvchan ventil ko'rinishda bo'lib, yong'in paytida ventil teshigi erishi natijasida yuqori bosim ostidagi suv yong'inni o'chiradi. Sprinklerlarni 3-4 metr masofa bilan o'rnatiladi. Turar joy binolarida sprinkler tizimi asosan chiqindi quvirlari, yer ostida joylashgan avtomobillar avtoturargohida, turar joy binolarini 1 va 2-qavatlarida savdo ko'rsatish punktlarida o'rnatiladi. Undan tashqari ularni yo'laklarda yoki xonadonlarning kirish qismida joylashtirish tavsiya etiladi.

Sprinkler tizimi iqtisodiy jihatidan tejamkor hisoblanadi. Yong'in paytida yong'in havfsizligi hodimlari kelgunlariga qadar olov otashini so'ndirib turadi, ya'ni zararni minimallashtiradi. Ya'na uni har bir obyektga individual holda hisoblab,

analiz qilgan holda tavsiya etiladi. Yoki birlashtirilgan sprinkler tizimi va mahalliy o't o'chirish asboblari bilan foydalanish mumkindir.

Binoning har qaysi bloklari oldida o't o'chirish gidrantlari loyihalashtirdim.



40,41-rasmlar.

O't o'chirish gidrantlari va o't o'chirgichlar.

Har bitta podyezdning kirish qismida yong'inga qarshi qutilarni o'rnatishni taklif etdim.

Binolarning birinchi va ikkinchi qavatlarida maishiy - xizmat do'konlari bo'lmaganda, birinchi qavatning kirish qismiga mahalliy o't o'chirish qutilarini o'rnatdim.

Binodan chiqishning asosiy eshigini ham, yong'in havfsizligi me'yorlariga binoan tashqariga ochiladigan eni 1.4metrli, umumiy og'rligi yong'in paytida erkin ochish mumkin bo'lgan metall va yog'och aralashgan eshiklari loyihaladim. Eshiklarda ochilmaydigan framugalar ham ko'zda tutilgan. Binolarda yong'in chiqish havfini va undan zararlanish miqdorini minimal

darajaga yetkazishga harakat qildim. Zinapoyalarda 1.4x0.75 metr o'lchamdagi derazalarni loyihada taklif etdim. Ular qavatdagi zararli hidlarni tashqi havo bilan almashtirib, zinapoyalarda mikroiklim yaratadi. Qish va o'tish mavsumlarida konditsiya jihozlari bu vazifani bajaradi.

Evakuatsiya yo'llari.

Malakaviy bitiruv ishida taklif etilgan 5,7,9,12 qavatli turar joy binolari loyihasida qavatdan chiquvchilar soni va zinapoya bo'limlari yong'in havfi bo'yicha binolarni klassifikatsiyasini hisobga olgan holda SHNK 2.01.02 Toshkent-2002yil ga muoffiq loyihalashtirilgandir. Ko'p qavatli binolardan zinalardan tashqari lift loyihalashtirilgandir. Bino atrofidagi yo'lak (otmoska)lardan odamlar ustiga oyna siniqlari tushishidan saqlanish maqsadida, o'tish yo'laklariga to'siqlar o'rnatish rejalashtirilgandir.

Qurilish jarayonida yong'in havfi paydo bo'lgan vaziyat uchun evakuatsiya yo'li ishlab chiqdim. Undan tashqari yonish havfi yuqori bo'lgan qurilish ashyolarini yonmaydigan yoki qiyin yonadigan ashyolardan qurilgan vaqtinchalik yoki doimiy omborlarda saqlanadi. Har bir omborning yonida PK (yong'in kranlari) ni loyihaladim. Ularni har 25metr oraliqda joylashtirdim. Turar joy binolarining maishiy – xo'jalik do'konlarida konditsiya va sprinkler tizimini loyihaladim. Bu qish va o'tish mavsumida ichki mikroiklimni avtomatik ravishda bir me'yorda saqlanishiga ko'maklashadi. Har bir turar joy binosining kirish qismida evakuatsiya yo'llarini loyihada ko'rsatdim.

XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'p sohalarda islohotlar, xalq farovonligi yo'lida olib borilayotgan ishlar qatorida arxitektura va shaharsozlik sohasida olib borilayotgan ishlar ham diqqatga sazovordir. 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Haqqulobod shahridagi Furqat maxalla markazini me'moriy rivojlantirish konsepsiyasi" shaharsoz arxitektorlarni yanada mas'uliyat bilan Haqqulobod shahridagi Furqat maxallasi xalq farovonligi yo'lida rivojlantirishga ruhlantirmoqda. Shularni inobatga olgan holda men ham bitiruv malakaviy ishim mavzusini Haqqulobod shahridagi Furqat maxallasini ekspremental mavze deb tanladim. Diplom ishimni loyihalash jarayonida men hududni chuqur o'rgandim, mamlakatimiz va chet el zamonaviy tajribasidan foydalangan holda, o'z hududimda iqlim sharoitlariga mos, xalqimiz uchun ham an'anaviy ham zamonaviy bo'lgan turar joy binolari, ma'rifat markazlari-kutubxona va o'quv markazlarini, mahalla yig'ini, rekreatsiya dam olish hududlarini arxitektura rejaviy loyihaladim. Asosiy maqsad mavzeda yashovchi aholiga ham yashash uchun, ham farzandlarning ma'naviy –ma'rifiy komolga yetishi uchun, aholining dam olishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishdan iborat bo'ldi. Men ushbu loyihamda buni uddasidan chiqdim deb o'ylayman. Kelgusida men yaratgan ushbu loyihada ko'zda tutilgan barcha yechimlar, xalqimizga manzur bo'ladi deb umid qilaman va Namangan viloyatidagi shahrlarning rekonstruksiya qilinayotgan yoki yangidan barpo etilayotgan barcha hududlari uchun etalon vazifasini bajaradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabyotlar.

1. Isamuhammedova D. U. "Shaharsozlik asoslari".
2. Isamuhammedova D. U. "Turar- joy tumani loyihasi"
3. Uralov. A. S., Adilova L. A., Nozilov D. A., Toshtemirov R. T. "Landshaft arxitekturasini" darslik : Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2014
4. Adilova L.A. "Landshaft arxitekturasining nazariyasi" Toshkent, 2015
5. Cherepanov V. A. "Transport v planirovki goroda" Moskva, Stroyizdat, 1970 g.
6. QMQ 2.07.01-03 "Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish" Toshkent-2006.
7. "Shaharsozlik asoslari" Isamuhammedova D. U. Toshkent, 2014-yil
8. QMQ 2.05.02-07 "Avtomobil yo'llari" Toshkent-2007.
9. Grodzinskiy A.M. Allelopatiya rasteniy i pochvoutomlenie. Izbr.trudy Tsentral'no-respublikansko botanicheskogo sada AN USSR. -Kiev: Nauk.dumka, 1991. S.173-174.
10. A. I. Kolesnikov – «Vertikal'noe ozelenenie». 1964y.
11. S. Ya. Sokolov, I. P. Zamotaev – «Spravochnik po lekarstvennym rasteniyam». Fitoterapiya. 1987y.
12. Bakutis V.E., Butyagin V.A., Lunts L.B. «Injenernoe blagoustroystvo gorodskix territoriy». Moskva, Stroyizdat, 1971 g.
4. Azimov X.A "Qurilishda mehnat havfsizligi" T-2003y.
5. QMQ 2.08.01-05. "Turar joy binolari" Toshkent-2006y.
6. QMQ 3.01.02-00 "Qurilishda havfsizlik texnikasi" Toshkent-2005y.
7. SHNK 2.01.02-04 "Yong'in havfsizligi" Toshkent-2004y.
8. QMQ 2.07.02-96 "Insonlarni hayoti va faoliyati" Toshkent-1996y

Foydalanilgan internet saytlar:

1. www.google.uz/transport tizimi
2. www.tiu.uz
3. uz.wikipedia.org
4. www.topglobus.ru
5. www.testing.uz
6. www.docs.cntd.ru
7. www.base.garant.ru
8. www.floristics.info
9. www.archi.ru
10. [http/ www.Totalarch.ru](http://www.Totalarch.ru) internet sayti.